



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN  
DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS**

**HELSINKI**

[universalconference.us](http://universalconference.us)

## **INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS**

Volume 01, Issue 08, 2024 (28-SEPTEMBER)

### **Editor in Chief**

**Dr. Rajeev Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi - 110025, India

### **Editorial Team**

**Sunita Sarawagi** - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

**Dr Manjunatha LH** - Professor, REVA University, INDIA

**Asish Bera** - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

**Dr Sunildro LS Akoijam** - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

**Madan Mohan Singh** - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

**Dr. Anupam Singh** - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

**Dr. Sargam Bahl Walia** - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

**Narayan Pradhan** - Indian Association for the Cultivation of Science

**Ashok Kumar** - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

**Anjali Pal** - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

**Rajnish Joshi** - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

**Mukul Kumar** - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

**Prof. Kuruvilla Joseph** - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

**Prof. Yogesh C. Sharma** - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

**Professor Indra Mani Mishra** - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

## FRAZEMALARNING MA'NO VA XUSUSIYATIGA KO'RA TURLARI. FRAZEMALARDA MILLIY MINTALITETNING AKS ETISH JARAYONI

**Abdusamatova Nozanin Azim qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi [nozaninabdusamatova8@gmail.com](mailto:nozaninabdusamatova8@gmail.com)

**Annotatsiya.** Tezisd frazeologik birliklarning umumiy ma'no plani, semantikasi, olim Sh.Rahmatullayev tomonidan mazkur sohaning tahlil qilinishi, iboralarning ma'no va xususiyatiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, shuningdek iboralarda milliylik va mintalitetning namoyon bo'lish jarayonlari haqida to'xtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Frazeologiya, frazema, ma'no, xususiyat, komponent, milliylik, mintalitet.

**Abstract.** This thesis provides information on the general meaning plan, semantics of phraseological units, the analysis of this field by the scientist Sh.Rakhmatullayev, the types of phrases according to their meaning and characteristics, as well as the processes of manifestation of nationality and mentality in phrases. xtab has been passed.

**Key words:** Phraseology, phrase, meaning, feature, component, nationality, mentality.

**Абстракт.** В данной тезисе представлены сведения об общем смысловом плане, семантике фразеологизмов, анализе этой области ученым Ш.Рахматуллаевым, типах фраз по их значению и характеристикам, а также о процессах проявления народности и менталитета в фразы. xtab был пройден.

**Ключевые слова:** Фразеология, словосочетание, значение, особенность, компонент, национальность, менталитет.

M

Б

Frazemalar semantikasi inson va uning faoliyatini tasdiqlovchi, uning harakatlarini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi. O'zbek frazeologiyasi maktabining yetuk namoyandasi Shavkat Rahmatullayev ham mazkur sohada talay yangiliklar yaratgan bo'lib, olim ilmiy tadqiqotlari mobaynida frazemalar ma'nosini shakllantirishdagi k

б

g

à

z

o‘rni masalasini yoritib , komponentlar o‘zlarining so‘z sifatidagi mustaqil leksik ma‘nosini yo‘qotib, umumlashgan ma‘noning yuzaga kelish holatlarini tahlil qilib o‘rganadi.

Frazemalarni komponent tahlil qilishning ayrim natijalari Sh.Rahmatullayevning ilmiy maqolasida va 1992 yilda nashr etilgan “O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi” nomli monografiyasida ham umumlashtirilgan.

Har bir xalq o‘z milliy ananalari, milliy qadriyatlarini saqlab qolish, bugungi glaballashuv zamonida nafaqat oddiy so‘zlashuv uslubida, balki til birliklari – maqol, matal, hikamatli so‘zlar va iboralardan ham foydalanadi. Bunda muayyan millat va elatning etnogenezi, moddiy va madaniy rivojlanish darajalari ham inobatga olinadi. Shu o‘rinda frazemalarda lingvokulturologik jihatdan frazemalar etnik, semantik jihatdan tahlil qilib o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Frazemalarning ma‘noviy xususiyatlarini guruhlarga bo‘lib tahlil qiladigan bo‘lsak:

1. Rang-tus komponentlari ishtirok etgan frazemalar: “oq ko‘ngil” – yaxshi niyatli kishi , “ ichi qora” – yovuz niyatli kishi, “oq uy, ola bargaklik bo‘lmoq”-serhasham binoga ega bo‘lmoq, “oqni oq, qorani qora demoq” – haqiqatni gapirmoq, “qorasini ko‘rsatmaslik”-kimningdir ko‘ziga ko‘rinmaslik, “qora terga botmoq”-og‘ir mehnat qilmoq;
2. Kiyim-kechak komponentlari ishtirok etgan frazemalar: “do‘ppisi tor kelmoq”-ilojsiz vaziyatga tushmoq, “do‘ppisi yarimta”-beg‘am, beparvo, “kovushini to‘g‘rilab qo‘ymoq”-haydamoq, “paytavasiga qurt tushmoq”-bezovta bo‘lmoq;
3. Tana a‘zolari qatnashgan frazemalar: “bag‘ri keng”-mehr-oqibati ortiq darajada, “bag‘ri qon bo‘lmoq” – jonidan to‘ydirmoq, “bel og‘ritmoq”-mashaqqat chekmoq, “bilak shimarib ishga kirishmoq”-astoyidil, sitqidildan ishga kirishmoq, “bosh ko‘tarib yurmoq”-o‘zini halol, pokiza, boshqalarga teng bilib harakat qilmoq, “bosh qotirmoq”-astoyidil o‘ylamoq
4. Meva-sabzavot nomlari qatnashgan iboralar: “olma engakina ayva to‘ni o‘turmoq”-ajin tushmoq, qarimoq, “olma pish, og‘zimga tush”-biron ishni mehnat qilmay, mashaqqatsiz, o‘z-o‘zicha ro‘yobga chiqishni kutmoq, “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq”-umidi puchga chiqmoq, bo‘shashmoq, “qovun tushirmoq”-biron ishni chappasiga qilmoq;
5. Raqam, son, sanoqlar qatnashgan frazemalar: “bir gapirib o‘n kulmoq”-suhbat davomida o‘zini xushchaqchaq tutmoq, “bir gapni ikkita qilmaslik”, “bir ishi ikki bo‘lmoq”-ishni ko‘paytirmoq, “bir tan-u bir jon bo‘lmoq”-astoyidil, birgalikda

harakat qilmoq, “bir oyog‘i yerda bo‘lsa, bir oyog‘i go‘rda”-ma‘lum vaqt biron joyda bo‘lsa, keyinchalik boshqa joyda bo‘lmoq, “bir qop yong‘oqdek shaldur-shuldur”-bor gapni ochiq-oydin aytmoq.

Frazemalar muayyan xalqning miqlari, udumlari, rivoyatlari, tamoyillari, urf-odatlarini, ma‘naviyati, axloq va hokaolar haqidagi tasavvurlarni mujassamlashtiradi. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mintalitetining qimmatli ma‘lumotlari sanaladi. Masalan, “ko‘rmasiga qarab oyoq uzatmoq”-imkoniyatiga qarab ish qilmoq, “tanobini tortib quymoq”-biron nimadan cheklab qo‘ymoq, “to‘ydan oldin nog‘ora qomoq”-ro‘yobga chiqarish aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan ish qilmoq, “xamir uchidan patir”-katta, ko‘p narsaning boshlang‘ich qismi, “xirmon ko‘tarmoq”-ekinlarni yig‘ib g‘amlamoq, “xo‘ja ko‘rsinga”-nomigagina, shunchaki, “Hizrni yo‘qlasam bo‘lar ekan”-kimnidir ko‘rish niyati qo‘qqisdan ro‘y berishi haqida aytilgan iboralar hisoblanadi. [2]

Iboralar tarkibida milliylikning akslanishi turli vositalar yordamida:

- Milliy kiyim-kechak;
- O‘zbek xalq o‘yinlari;
- Asrlar davomida shakllanib kelgan milliy urf-odatlar asosida shakllangan turli iboralarni kuzatishimiz mumkin.

Milliy kiyim-kechaklar asosida yuzaga kelgan iboralar. Bunday iboralar guruhiga milliy kiyimlardan ayniqsa – do‘ppi, ro‘mol, chopon, kovush, maxsi kabilarni misol keltirish mumkin. Bu kabi kiyimlar qatnashgan iboralar tarixan bir necha asrni bosib o‘tgan iboralar sirasiga kiradi. Ular orasida eng faol iste‘molda bo‘lgan, ko‘p qo‘llanadigan kiyim turi-do‘ppi bo‘lib, aynan mana shu bosh kiyim vositasi orqali ko‘plab iboralar shakllangan. Masalan: “do‘ppisi tor kelmoq”-ilojsiz, tang ahvolda qolmoq, “do‘ppisini osmonga otmoq”-haddan ortiq shodlanmoq, “bosh yorilsa do‘ppi ichida, qo‘l sinsa yeng ichida”-ya‘ni boshning yorilganini do‘ppi ko‘rsatmaydi degan ma‘noda qo‘llangan.

Albatta, do‘ppi xalqimizning milliyligi, ko‘p asrlik urf-odat, ananalarini aks ettiruvchi vosita hisoblanadi. “Erkning ko‘rki do‘ppi” deyilganidek do‘ppi qadim zamonlardan beri ota-bobolarimizning boshida erklik, ozodlik ramzi sifatida doimiy kiyib kelingan. Olim A.Mamatov ham do‘ppi vositasi qatnashgan frazemalar o‘zida milliylikni tarannum etuvchi birlik sifatida qarashni aytib o‘tgan.

Yoki bo‘lmasa “to‘n” kiyimi qatnashgan iboralar: “bir to‘ni ikkita bo‘lmaslik”-kami ko‘paymaslik, “soyaga qarab to‘n bichmoq”-tavakkaliga biron ishni boshini tutmoq,



“to‘nini teskari kiymoq”-jahli chiqmoq, g‘azablanmoq kabi iboralar tarkibida qadimdan erkaklar va ayollarimizning milliy kiyimi hisoblangan chopon vositasi orqali shakllangan.

Albatta, bu kabi vositalarda frazeologik ma‘no ustuvor bo‘lib, frazeologik ma‘no-frazemaning voqelikka nisbatan beriladigan lug‘aviy mazmuni (nimadir anglatishi, ifodalashi) hisoblanadi. Misol uchun, “bir qop yong‘oqday shaldur-shuldir” iborasini keltiradigan bo‘lsak, uning ma‘nosi bor gapni ochiq-oydin aytuvchi, ko‘ngli bo‘sh degan ma‘noni anlatib keladi. Mazkur iboraning yana bir ma‘nosi “bir qop yong‘oq”, yoki “bir siqim bo‘lib qolmoq” iborasini olsak. Bu iboraning ma‘nosi-kichrayib qolish, qarilarning jussasiga nisbatan aytiladigan ibora hisoblanadi, uning variant “bir parchagina bo‘lib qolmoq”, “bir hovuch bo‘lib qolmoq”. [3]

Frazeologik ma‘nodan so‘ng baho semasi ham muhim bo‘lib, frazemaning voqelikka nisbatan bildirgan munosabati, reaksiyasi baho semasi deb yuritiladi. Frazemalarda baho semalari bevosita uning umumiy mazmun plani bilan bog‘liq bo‘lib, bunda uning mazmunan doimiy tarkibiy qismi bo‘lib qatnashib, ba‘zan esa frazemalarning lug‘aviy ma‘nosini butunlay qamrab ham oladi.

Bu kabi holatlarda frazemalarda frazeologik monosemiya va frazeologik polisemiya hodisasi muhim o‘rin egallab:

Frazeologik polisemiya — frazemaning semantik tarkibida ikki yoki undan ortiq frazeologik ma‘noning bo‘lishi. Masalan: boshi(m) aylandi frazemasining semantik tarkibida ikkita frazeologik ma‘no bor: 1) «Behud bo‘lmoq» ma‘nosi: «stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. «Muncha darmonsiz bo‘lmasam», — o‘yladi u». (S.Z.); 2) «Esankiramoq» ma‘nosi: «...muloyim qarab qo‘yishlarini, ... jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi». (O.Y.) Leksemalarda bo‘lganidek, frazemalarda ham polisemiya hodisasi ma‘no ko‘chish qonuniyatlariga asoslanadi.

Frazeologik monosemiya — frazemaning semantik tarkibida bitta frazeologik ma‘noning bo‘lishi. Chunonchi, ko‘ngliga qo‘l solmoq frazemasining semantik tarkibida «yashirin fikr-o‘yini bilishga harakat qilmoq» ma‘nosidan boshqa frazeologik ma‘no yo‘q: «Rizaning yuragiga qo‘l solib ko‘rgan Muhiddin uning javobidan xursand bo‘ldi.» (R.F.). «Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi xotinlarning ko‘ngliga qo‘l solib ko‘rish, undan keyin o‘zimga ba‘zi bir ishonchliroqlarini tanlab olish edi.» (S.Z.). Keltirilgan gaplarning birinchisida ko‘ngliga qo‘l solmoq frazemasining variatsiyasi — «yuragiga qo‘l solib ko‘rmoq» ishlatilgan, har ikki

holda ham bitta frazeologik ma'no — «yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq» nazarda tutilgan. Frazemada ikki va undan ortin leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markazig bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalarda anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi.

Frazeologik ma'noning o'ziga xosligi frazemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlarning tabiatini belgilab beradi. Frazemalarning leksemalar bilan kechadigan sinonimik, antonimik, darajali munosabatlari frazemalararo munosabatlardan farqlidir. Bunda frazeologik ma'noda leksik ma'nodan farqli o'laroq nominatsiya bilan bir qatorda konnotatsiyaning doimiy mavjudligi, obrazga egalik kabilar ahamiyatlidir. Frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi "hikmatlar xazinasini" bo'lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.[4]

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A. Maslova "Lingvokulturologiya" M-2001. 208-bet.
2. Z. Jumayev "Frazeologik birliklarning semantic va lingvokulturologik tadqiqi" J-2021. 45-bet.
3. M. Qo'shnazarova "Frazemalarda antisemiya" 2019-y.
4. Q. Hakimov O'zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi. NDA. – Toshkent.
5. M. Hakimova Semasiologiya. –T-2008
6. Sh. Rahmatullaev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" T- 2006.
7. Q. Sapayev "Hozirgi o'zbek tili" T- 2009
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
9. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
10. "O'zbek tili frazeologik lug'ati" T-2022.

## ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК МУОАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ

Ш.Н.Янгиев

“ТИҚХММИ” МТУнинг Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти

**Аннотация.** Жаҳонда таълим тизимининг динамик ўзгаришлари, глобал рақобат ва илм-фаннинг жадал ривожланиши контекстида таълим кластери ғояси ўз аҳамиятини йўқотмаяпти. Бу ғоянинг асосида таълим муассасалари, илмий-тадқиқот институтлари, корхоналар ва бошқа ташкилотлар ўртасидаги яқин ҳамкорликни яратиш ва шу орқали таълим тизимининг сифатини ошириш, таълим олувчиларнинг рақобатбардошлигини кучайтириш ва иқтисодиётга мутахассисларни тайёрлаш мақсади ётади.

Аммо, таълим кластери ғоясининг амалга ошиши жараёнида бир қатор педагогик муаммолар юзага келади. Ушбу мақолада ана шу муаммоларни таҳлил қилиб, уларни ечиш йўллари таклиф этишга ҳаракат қилинади.

**Калит сўзлар.** кластер, педагогик таълим кластери, интеграция, кластернинг стратегик йўналишлари, тизим, кластер субъектлари, кластер тамойиллари.

**Таълим кластерининг педагогик муаммолари.**

### 1. Кластерларнинг ҳамкорлик ҳамда интеграция муаммолари.

Таълим кластерининг муваффақиятли ишлаши учун ҳамкорликнинг чуқурлиги, ташкилотлар ўртасидаги интеграциянинг мавжудлиги ва муштарак мақсадларнинг аниқ белгиланиши муҳим аҳамиятга эга.

- **Ҳамкорликнинг етарлича ривожланмаганлиги.** Баъзи ҳолларда таълим муассасалари, илмий-тадқиқот институтлари ва корхоналар ўртасидаги ҳамкорлик етарли даражада ривожланмаган.

- **Интеграциянинг етарли даражада бўлмаганлиги.** Таълим кластерига кировчи ташкилотлар ўртасидаги интеграциянинг етарли даражада бўлмаганлиги, яъни таълим мазмуни, ўқув жараёни, баҳолаш тизими ва бошқа йўналишлардаги мувофиқлаштириш етарли даражада амалга оширилмаган.

- **Мақсадларнинг ноаниқлиги.** Баъзи ҳолларда таълим кластерининг мақсадлари аниқ белгиланмаган, бу эса ҳамкорликнинг самарадорлигини пасайтиради.



## **2. Ресурсларни бошқариш ва молиялаштириш муаммолари.**

Таълим кластерининг самарали ишлаши учун молиявий ресурсларнинг етарли бўлиши, ресурсларни самарали бошқариш ва молиявий шаффофлик муҳим аҳамиятга эга.

- **Молиявий ресурсларнинг етарли бўлмаслиги.** Таълим кластерининг фаолиятини молиялаштириш учун етарли ресурсларнинг етарли бўлмаслиги, лойиҳаларни амалга оширишда қийинчиликлар туғдиради.

- **Ресурсларни самарали бошқаришнинг етарли даражада бўлмаганлиги.** Таълим кластерининг молиявий ресурсларини самарали бошқариш механизмларининг етарли даражада бўлмаганлиги, ресурсларни ҳаддан ташқари сарфланишига олиб келиши мумкин.

- **Молиявий шаффофликнинг етарли даражада бўлмаганлиги.** Таълим кластерининг молиявий фаолиятидаги шаффофликнинг етарли даражада бўлмаганлиги, ишончсизликни юзага келтириши ва ҳамкорликни сусайтириши мумкин.

## **3. Таълим мазмуни ва ўқув жараёнини мувофиқлаштириш муаммолари.**

Таълим кластерининг самарали ишлаши учун таълим мазмуни ва ўқув жараёнининг мувофиқлаштирилганлиги муҳим аҳамиятга эга.

- **Таълим мазмунининг мувофиқлаштирилмаганлиги.** Таълим кластерига кировчи ташкилотлар ўртасида таълим мазмунининг мувофиқлаштирилмаганлиги, ўқувчиларнинг билимлари ва кўникмаларининг узвийлигини бузади.

- **Ўқув жараёнининг мувофиқлаштирилмаганлиги.** Таълим муассасалари ва корхоналар ўртасида ўқув жараёнининг мувофиқлаштирилмаганлиги, ўқувчиларнинг корхоналарда амалиёт ўташида қийинчиликларни юзага келтириши мумкин.

- **Ўқувчиларнинг турли хаёллари ва қизиқишларини ҳисобга олишда қийинчиликлар.** Таълим кластерининг ўқувчиларининг турли хаёллари ва қизиқишларини ҳисобга олишда қийинчиликлар юзага келиши мумкин.

## **4. Баҳолаш ва сифат назорат тизимининг муаммолари.**

Таълим кластерининг самарадорлигини баҳолаш ва сифат назорат тизимининг яхши ишлаши муҳим аҳамиятга эга.

- **Баҳолаш тизимининг мувофиқлаштирилмаганлиги.** Таълим муассасалари ва корхоналар ўртасидаги баҳолаш тизимининг мувофиқлаштирилмаганлиги, ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини объектив баҳолашда қийинчиликларни юзага келтириши мумкин.

- **Сифат назорат тизимининг етарли даражада бўлмаганлиги.** Таълим кластерининг фаолиятининг сифатини назорат қилиш тизимининг етарли даражада бўлмаганлиги, кластернинг самарадорлигини пасайтириши мумкин.

- **Таълим сифатининг объектив баҳоланишида қийинчиликлар.** Таълим кластерининг таълим сифатининг объектив баҳоланишида қийинчиликлар юзага келиши мумкин.

#### **5. Таълим хизматларининг маркетинги ва жамоатчилик билан алоқалар муаммолари.**

Таълим кластерининг муваффақиятли ишлаши учун жамоатчилик билан алоқаларнинг яхши бўлиши, таълим хизматларининг маркетинги ва таълим кластерининг ташқи муҳит билан интеграцияси муҳим аҳамиятга эга.

- **Таълим хизматларининг маркетингининг етарли даражада бўлмаганлиги.** Таълим кластерининг таълим хизматларининг маркетингининг етарли даражада бўлмаганлиги, талабаларни жалб қилишда қийинчиликларни юзага келтириши мумкин.

- **Жамоатчилик билан алоқаларнинг етарли даражада бўлмаганлиги.** Таълим кластерининг жамоатчилик билан алоқаларнинг етарли даражада бўлмаганлиги, жамоатчиликнинг таълим кластери ҳақидаги маълумотларининг етарли бўлмаганлигига олиб келиши мумкин.

- **Таълим кластерининг ташқи муҳит билан интеграциясининг етарли даражада бўлмаганлиги.** Таълим кластерининг ташқи муҳит билан интеграциясининг етарли даражада бўлмаганлиги, таълим кластерининг самарадорлигини пасайтириши мумкин.

**Юқорида кўрсатилган муаммоларни ечиш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш муҳим ҳисобланади.**

- **Ҳамкорликни чуқурлаштириш ва интеграцияни кучайтириш.** Таълим кластерига кирувчи ташкилотлар ўртасидаги ҳамкорликни чуқурлаштириш ва интеграцияни кучайтириш, муштарак мақсадларни белгилаш ва уларни амалга ошириш учун самарали механизмларни яратиш зарур.

**- Ресурсларни самарали бошқариш ва молиявий шаффофликни таъминлаш.** Таълим кластерининг молиявий ресурсларини самарали бошқариш ва молиявий шаффофликни таъминлаш, ресурсларни ҳаддан ташқари сарфланишини олдини олиш ва ишончсизликни камайтиради.

**- Таълим мазмуни ва ўқув жараёнини мувофиқлаштириш.** Таълим кластерига кирувчи ташкилотлар ўртасида таълим мазмуни ва ўқув жараёнини мувофиқлаштириш, ўқувчиларнинг билимлари ва кўникмаларининг узвийлигини таъминлаш ва ўқувчиларнинг корхоналарда амалиёт ўташини енгиллаштириш зарур.

**- Баҳолаш ва сифат назорат тизимининг самарадорлигини ошириш.** Таълим муассасалари ва корхоналар ўртасидаги баҳолаш тизимини мувофиқлаштириш, ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини объектив баҳолаш имконини беради. Сифат назорат тизимининг самарадорлигини ошириш, таълим кластерининг самарадорлигини оширади.

**- Таълим хизматларининг маркетингини кучайтириш ва жамоатчилик билан алоқаларни яхшилаш.** Таълим кластерининг таълим хизматларининг маркетингини кучайтириш, талабаларни жалб қилиш имконини беради. Жамоатчилик билан алоқаларни яхшилаш, жамоатчиликнинг таълим кластери ҳақидаги маълумотларини кенгайтиради ва таълим кластерининг ташқи муҳит билан интеграциясини яхшилайд.

Хулоса: Таълим кластерининг педагогик муаммоларини ечиш, таълим сифатини ошириш, таълим олувчиларнинг рақобатбардошлигини кучайтириш ва иқтисодиётга мутахассисларни тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга. Ушбу мақолада кўрсатилган муаммоларни ечиш йўллари амалга ошириш, таълим кластерининг самарадорлигини ошириш ва таълим тизимининг ривожига муҳим ҳисса қўшади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, -2006. Ч. 1. -С. 24–29.

2. Беспалова Л. Что такое кластер? URL: <http://siok.rightside.ru/siok/2009-12-01-06-24-41>. Загл. с экрана.
3. Кривых С.В. Кластерный подход в профессиональном образовании / С.В.Кривых // Академия профессионального образования. -2014. -№3-4. –С.7-13.
4. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффективности деятельности вуза / Л.И.Осечкина// Высшее образование в России. -2012. - №8-9. –С.73-76.
5. Обидов Р. Кластер тизимида қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш ҳамда сотиш харажатлари ҳисобининг хусусиятлари, “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. -2018. -№3, -Б.3-7

## **RESEARCH OF UZBEK ORNITHONYMS AND ITS MAIN DIRECTION.**

**Shomurotova Bibikhon Uktamovna.**

Teacher of the English language department of TMA Urgench branch

[bibixon86@mail.ru](mailto:bibixon86@mail.ru)

One of the peculiarities of Uzbek ornithonymy is that in our national heritage of birds, in the study of the world of birds, works that are not specifically dedicated to birds or whose names are not related to birds have a large place. For example, some of the incidents related to the birds and flight of Sufism are also included in Alisher Navoi's work "Nasayim ul-Muhabbat". We will pay attention to some pictures from it that are directly related to the topic. In the work, people did not accept the famous Zunnun Misri ideas, the leech for life. But "Zunnun has passed away as a saint." . In the morning of the funeral, the green birds overshadowed the funeral. And so, a large number of people were in their shoes. After Andin, Zunnunga became accepted in the hearts of the people" (!) Alisher Navoi writes during these words, "After the end of the term, birds shadowed the funeral of Shafi'i's student Mu'azzini." So these words show that there is truth behind the ancient view of birds as mediators with the divine realm. At the same time, we will also learn that in Islamic beliefs, birds are considered a special symbol. In Sufism, flight is distinguished by having a certain meaning, even if it is not considered a separate status and destination. The flight of the Sufi is a special virtue of the Truth and should serve for spiritual perfection. That's why Sufi Oloyor says, "If a person without Shariat flies, don't worry about self-righteousness." In Nasoyim ul-Muhabbat, Alisher Navoi tells Jalaluddin Rumi, when he was six years old, while playing with children on Friday night, "Let's jump to another roof from this roof." Then the young Muhammad (Jalaluddin Balkhi) said, "This action is a dog and cat affair!" If you have the energy in your soul, let's jump to the roof of the sky!" – in this case Tomdin rises into the air. Then the children will cry. After a moment, young Jalaluddin returned to the same roof, his eyes and color changed. To the children, "I told you the same word that the green ones took me up to heaven and showed me the wonder of the kingdom. When your screams and cries came out, they brought you down here again." Fariduddin Attar, speaking to his murids about the purpose and actions of dervishes, compares the tax to a bird, that is, a dervish is a bird, and even if it cannot fly in the sky, it will at least rise above the roof: "A bird will fly above the



earth, if it does not reach the sky, but be far from the sky. Hamul nav' if a person is a dervish, if the dervish is not perfected, but let it be such that he is a classic of folk religion and bazaar people and successful in the world's toils. I went there before and saw when he was praying, green and white birds were praying in the sky with us. When we finished the prayer, a green bird came among the birds and killed it near the coffin, swallowed the coffin and flew away to join the other birds. And they recited the tasbih and disappeared from sight. I was surprised. That person said: O Umar, have you not heard that the souls of martyrs will be in the green birds that roam in any land of paradise. These are those who were martyred by the sword. But the bodies and souls of martyrs of love will be in green birds. This person is one of them, O Umar! The Sheikh said that three days after my death, the citizens will gather, and if a green bird comes and kills everyone, kill it instead of me! Three days after the Sheikh's death, when the citizens were gathering, a green bird came,

Maqam - address, stage, spiritual position, career, stop. According to Najmuddin Kubro, "the position is to get rid of traffic congestion is to relax and entertain. Status is the two wings of a bird, and status is its nest.

There was one problem. When we saw Luqman, he immediately flew to us and told us about the matter. And that's it, the work has stopped. He flew again and came out of the room. Perhaps, from the point of view of loftiness, Sheikh Luqmon was given the name of poultry. In the Uzbek classical heritage, some historical ornithonymy plays an important role. For example, in the work "Shajarai tarokima" Abulghozi Bahadirkhan writes in the chapter "Meanings of the horses and marks and birds of Oguz Khan's grandsons": I will tell you,..” – notes the following: "The meaning of birch is mahkam temak, the bird is shunqar" Shunqor is a general name used for all falcon-type birds in Eastern Turkestan. In Anatolia, this bird is usually called sungur. In the Kyrgyz language, the word sumkar is a name used for all birds of the falcon and hawk family. In this way, the meaning, symbol and bird of the name of each clan are given in the work: "The meaning of Bayot is a stately temak, the bird is uki (ukki); The meaning of alka evli is a suitable match. ... the bird is kukanik; The meaning of black marriage is that if you kill a bird, it will be a sledgehammer, ... The meaning of summer is that the country's water will be warm, ... the bird will rise; Yasir's meaning is that if anything comes in front of him, it will be a yiqar temak, ... the bird is cursing; The meaning of a stutter is a tree that knows how to be a country and how to preserve it, ... the bird is a red sparrow; The meaning of dukar is tosarak (Turkish) temak, ...

the bird has migrated (kochkin); The meaning of Avshar is to work hard, ... the bird is a falcon; The meaning of "fun" is "boka temak", ... like a bird; The meaning of Bekdili is the word respectable, ... the sea of birds; The meaning of "Qarqin" is "Oshly temak", ... the bird is humoy; The meaning of "salur" is a falcon, ... the bird is a falcon; The meaning of "Bajna" is "The bird is a bird". The meaning of chavuldur is a dish of honor, ...the bird is like wheat; The meaning of chebni (jebni) is price is temak, ... the bird is humoy; The meaning of Aymir is the wealth of the rich. The meaning of ola yontli is ola otli temak, ... the bird is fat; The meaning of Uragir is a doer of good deeds, a bird is a bird; The meaning of Igdir is a great tree, ... the bird is a bird; The meaning of Bukdur is a servant temak, ... the bird is italgu; The meaning of Ava (Iva) is that the career is high, the bird is feeling; The meaning of the guest is a dear temak, ... the bird is a bird of prey. B. Ozel gives exactly this information in his book.

## **UBAYDIY – MOHIR RUBOIYNAVIS**

**Hayitboyeva Dilorom Hakim qizi**

*ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

### **ANNOTATSIYA**

Bugungi asrimizda Ubaydiy ijodini o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbek ruboiynavisligi taraqqiyotiga Ubaydiy ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, ruboiy janri uchun belgilangan an‘anaviy qonun-qoidalarga amal qilib qolmasdan, uni ma‘no va mazmun jihatidan boyitishga, hayot bilan uyg‘unlashtirishga, til va ifoda soddaligi, samimiyligiga erishishga katta ahamiyat bergan. Ushbu maqolada Ubaydiy ruboiylarining mavzusiga ko‘ra turlari, ularning vazn xususiyatlari, misralar tahlili va badiiy san‘atlari yuzasidan mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** ruboiy, tezis, antitezis, moddai ruboiya, vazn, sintez, istiora, tashbeh, nido, ruju’, tazod.

### **Annotation**

In our century, the study of Ubaydi's work has become one of the most important issues in our literature. Ubaydi also made a worthy contribution to the development of Uzbek rubai writing. This article discusses the types of Ubaydi rubai, their weight characteristics, the analysis of verses and their art.

**Key words:** rubai, thesis, antithesis, rubai material, weight, synthesis, istiora, tashbeh, nido, ruju’, tazod.

Ubaydiy o‘zbek va fors-tojik adabiyotining zabardast ruboiynavislaridan hisoblanadi. Uning bu ikki tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. O‘zbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydiy nomi bilan bog‘liq. U Navoiy va Bobur ijodiga ehtirom bilan qaragan. Navoiy ijodi davomida 700 dan ortiq, Bobur 230 dan ortiq ruboiy yaratgan bo‘lsa, Ubaydiyning turkiy devoniga 430 dan ortiq, forsiy devoniga 418 ta ruboiysi kiritilgan. Shu nuqtayi nazardan Ubaydiy o‘zbek adabiyotida eng ko‘p – 800 dan ortiq ruboiy yaratgan shoir sifatida qadrlidir. U bu janrni son jihatidagina emas, mazmun-mohiyat jihatidan ham yangi takomil bosqichiga olib chiqishga muvaffaq bo‘ldi. Ubaydiy ruboiylari tili ravon, uslubi sodda va go‘zal, mazmuni keng va teran. Ular dunyoning past-u balandini ko‘rgan, hayotning butun achchiq-chuchugini totgan, inson fe‘lining turfa tuslanishlarini sinchklab o‘rgangan, ilmi zohir va ilmi botinni

o'zida mujassam etgan olim va orif insonning qalbidan qaynab chiqqan hikmatlardir.

Ubaydiy ruboiylarida tilning boy imkoniyatlaridan, o'ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Shoir ruboiylarining tili sodda, uslubi ravon, fors-arab so'zlari nihoyatda kam, xalq jonli tiliga yaqin.

Quyida shoirning bir necha ruboiylarini tahlilga tortib o'rganishga kirishamiz.

*Sendek bu jahonda g'amgusorim yo'qtur,  
 Ko'rmay seni bir yerda qarorim yo'qtur.  
 Ey yor, demaki, o'zga yoring bor emish,  
 Yorim sen erursan, o'zga yorim yo'qtur!*[2:46]

Ruboiy **hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar** vazni (– –V / V – V– / V – – – / –) maf'uvlu/mafoilun/mafoiylun/fa''))da yozilgan bo'lib, taqte'si quyidagicha belgilanadi:

*Sendek bu/ jahonda g'am/gusorim yo'q/tur,*  
 – – V / V – V – / V – – – / –  
*Ko'rmay se/ni bir yerda qarorim yo'q/tur.*  
 – – V / V – V – / V – – – / –  
*Ey yor, de/maki, o'zga /yoring bor e/mish,*  
 – – V / V – V – / V – – – / –  
*Yorim sen/ erursan, o'z/ga yorim yo'q/tur!*  
 – – V / V – V – / V – – – / –

Mumtoz janr talabiga ko'ra ruboiy tarkibi 4 qismdan tashkil topadi. Ammo har doim ham ruboiyda ularning hammasi ham kelavermasligi mumkin.

Ruboiyning birinchi misrasi tezis bo'lib, unda shoir ruboiyda aytmoqchi bo'lgan fikrni o'rta tashlaydi. Ruboiyning birinchi misrasi uning mavzusini ifodalaydi.

Ikkinchi misrani ma'lum ma'noda antitezis deyish mumkin, bunda birinchi misradagi fikrga qarama-qarshi yoki qo'shimcha munosib fikr keltiriladi.

Ruboiyning uchinchi misrasi moddai ruboiya deb ataladi. Bu misra shoirning to'rtinchi misrada aytmoqchi bo'lgan xulosasi uchun ko'prik vazifasini o'taydi.

Ruboiyning to'rtinchi misrasi sintezda bo'lsa yakuniy xulosalovchi fikr keltiriladi. Bu xulosa shoirning asosiy g'oyasidir.[1:157]

Ubaydiyning yuqorida keltirilgan ruboiysi ham aynan shu talablarga mos keladi. Bu ruboiy oshiqona ruhda bo'lib, lirik qahramon yoriga bo'lgan sof va sadoqatli muhabbatini tasvirlagan. Yorini chiroyli istiora orqali "g'amgusorim" deb ataydi. Uni bir lahza ko'rmasa, o'zini har qayerga qo'yishga joy topolmasligini aytadi. Agar mahubasi oshiqning o'zga yori bor deb xayoliga keltirsa, bu fikr yanglish ekanligini,

faqat bir uni yor deb tan olishini ta'kidlaydi.

Ubaydiyning ko'pgina ruboiylari ishqiy kechinmalarning bevosita bayoni sifatida yuzaga kelgan. Ularda shoir o'zining ichki kechinmalarini tabiatdagi biror bir narsa, predmetga yoki insonga murojaat tarzida bayon qiladiki, bu mumtoz adabiyotda nido san'ati deyiladi. Ey yor birikmasi misol bo'la oladi. Bor – yo'q so'zlari bo'lsa, tazod san'atini yuzaga keltirgan. Shoirning ushbu "Yo'qtur" radifli ruboiysi tuzilish jihatidan Boburning ham xuddi shu nomdagi ruboiysiga o'xshab ketadi. Farqi, Bobur o'z ruboiysida vatan sog'inchi va o'z yurtidan judolik tuyg'ularini aks ettirgandir.

*Yoreki, ko'zi sho'x-u qadi ra'nodur,*

*Man telba kibi – ko'ngul anga shaydodur.*

*O'lsam dog'i o'z oldida parvo qilmas,*

*Naylay, ne qilayki, asru beparvodur.* [2:48]

Ruboiy **hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar** vazni (– –V / V – V– / V – – – / –) maf'uvlu/mafoilun/mafoiylun/fa''))da yozilgan bo'lib, taqte'si quyidagicha belgilanadi:

*Yoreki, / ko'zi sho'x-u/ qadi ra'no/dur,*

– –V / V – V– / V – – – / –

*Man telba/ kibi – ko'ngul/ anga shaydo/dur.*

– –V / V – V– / V – – – / –

*O'lsam do/g'i o'z oldi/da parvo qil/mas,*

– –V / V – V – / V – – – / –

*Naylay, ne /qilayki, as/ru beparvo/dur.*

– –V / V – V– / V – – – / –

Shoirning ushbu ruboiysi ham oshiqona ruhda yozilgan. Yorning ko'zlarini sho'x, qaddini bo'lsa ra'noga qiyoslaydi. Bunda tashbeh san'atidan foydalanadi. Oshiq o'zini telbaga o'xshatib, ko'nglini unga shaydo ekanligini aytadi. "Ma'shuqam oldida jon bersam-da, u menga parvo qilmaydi", – deydi. Oxirgi misrada lirik qahramon mahbusini nima qilsa ham unga benihoyat beparvo ekanligi bilan kechinmalarini yakunlaydi.

*Isteza bila ulusni vayron qilma,*

*Vayron qilibon yer bilan yakson qilma.*

*Yaxshiliq agar umiding o'lsa Haqdin,*

*Yaxshig'a jafo, yamonga ehson qilma!* [2:30]

Ruboiy **hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar** vazni (– –V / V – V– / V – – – / –) maf'uvlu/mafoilun/mafoiylun/fa''))da yozilgan bo'lib, taqte'si quyidagicha



belgilanadi:

*Isteza/ bila ulus/ni vayron qil/ma,*  
--V / V - V- / V - - - / -  
*Vayron qi/libon yer bi/lan yakson qil/ma.*  
- - V / V - V - / V - - - / -  
*Yaxshili/q agar umi/ di ng o 'lsa Haq/din,*  
- - V / V - V - / V - - - / -  
*Yaxshig 'a /jafo, yamon/ga ehson qil/ma!*  
- - V / V - V - / V - - - / -

Qofiyalanish tizimiga ko‘ra mutlaq qofiya bo‘lib, vayron, yakson, ehson so‘zlari qofiya sifatiida tanlab olingan, tuzilishiga ko‘ra murdaf(ridfli) qofiya tizimiga kiradi. Sababi, raviy tovush “n”dan oldin cho‘ziq unli “o” kelganidadir.

Isteza(sitez,siteza) – jang, urush; adovat, dushmanlik; g‘azab.

Ubaydiyning yuqoridagi ruboiysi pand-nasixat yo‘lida yozilgan bo‘lib, axloqiy-didaktik mavzudagi ruboiylar sirasiga kiradi. Shoir xalqni urush-u jang bilan yoyinki, o‘zgalarga bo‘lgan dushmanlik va adovat tuyg‘usi bilan xonavayron qilma deb xitob qiladi. Ikkinchi satrda esa birinchi misradagi fikrdan ham kuchlirog‘ini keltirib, xalqni vayron qilish bilan birga uni yer bilan yakson qilmaslikni ta’kidlaydi. Vayron qilma va yer bilan yakson qilma so‘zlari ruju’ san’atini yuzaga keltirgan. Uchinchi va to‘rtinchi misralarda “agar Ollohdan yaxshiliklar umiding bo‘lsa, yaxshi kishilarga jafo, zulm qilma, yomonlarga bo‘lsa ehson-u hadyalar qilma” deb shoir fikrini kuchli buyruq ohangi bilan yakunlaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Ubaydiy ruboiy janrida mahorat bilan qalam tebratgan. Uning 400 dan ortiq turkiy ruboiysi o‘zbek she’riyatining ham mavzu, ham poetik jihatdan boyishiga xizmat qilishi bilan alohida tahsinga sazovordir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
2. Убайдий. Дийдор орзуси. Нашрга тайёрловчи Очилов Э. – Т.: Шарқ, 2007.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ, 1999.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатлар ва мумтоз қофия. –Т.: Шарқ, 1998.
5. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. –Т.: Фан, 1981.

## **SIDQIY XONDAYLIQIYNING “SAD IRSHOD YOXUD SAD QONUNI” – XALQ DONOLIGINING GO`ZAL DURDONASI**

**Abdujabborova Intizor Jamshedovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti  
adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA:**

XX asr boshlarida yashab ijod etgan, ma’rifatparvar iste’dodli so‘z san’atkorlardan biri Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiydir. Ushbu maqolada Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning “Sad irshodi yoxud sad qonuni” asari tahlili bilan bog‘liq izlanishlarimizni e’tiboringizga havola etamiz.

**Kalit so‘zlar:** qo‘lyozma, xattot, Begali Qosimov, Asad Asil, Muhammadsharif Gulxaniy, Nozil Xo‘jandiy.

Sidqiy nasriy asarlar ham muallifi. “Tazkirayi Imomi A’zam”, “Sad irshodi mullo Sidqiy Xondayliqiy”, “Mezoni shariat”, “Zarbulmasali Sidqiy” lar an’anaviy nasrda yozilgan. Shuningdek, u “Hikoyayi latifa”, “Bahrom va malikayi Gulandom”, “Karimo tarjimasini”, “Ming bir kecha”, “Ajoyib ul-maxluqot”, “O‘g‘ri va qozi” kabi bir qator nasriy asarlarni tarjima qilgan.

Sidqiy nasriy asarlarining mavzu ko‘lami keng va rang- barangdir. Yuksak axloq mezonlari va ilm- ma’rifatga da’vat Sidqiyning she’riyatidagi kabi nasrida ham o‘zak g‘oyalardan hisoblanadi. Ilm va ilm sohiblarini e’zozlash kerakligini Sidqiy asarlarida takror va takror uqtiradi. Shu bilan birga adib o‘z risolalarida insoniy fazilatlar, aql va bilim egasi bo‘lgan go‘zal xulqqa ega bo‘lgan odobli ayol siymosini chizishga harakat qiladi. Chunki ona, har bir insonning eng birinchi murabbiysi hisoblanadi. Buni chuqur his etgan Sidqiy, shoir sifatida ayolning go‘zal husni - jamolini kuylab kelgan bo‘lsa, nosir sifatida esa ayol xulqining go‘zal bo‘lishiga urg‘u beradi.

Oila obodligi va tinchligi ko‘p jihatdan ayol kishiga bog‘liqligini, oila mustahkamligida fidoiylikni talab qilishini ko‘ngli nozik ayollarga kichik ishoralar orqali uqtirmoqchi bo‘ladi.

Adib nasriy merosining salmoqli qismini diniy-axloqiy asarlar tashkil qiladi. Sidqiyning 1914-yilda chop etilgan “Tazkirayi Imomi A’zam” asari shundaylardan. Islom olamida Imomi A’zam nomi bilan mashhur bo‘lgan, sunniy “Hanafiya” mazhabining asoschisi Abu Hanifa an- No‘mon ibn Sobit (699/700-767) haqida bir

qancha yodnomalar, tazkiralar, manoqiblar maydonga kelgan, son-sanoqsiz rivoyatlar yaratilgan va etib kelgan.

Jahon adabiyotshunosligida anbiyo va avliyolar hayotini badiiy aks ettirishni o`rganuvchi “agiografiya” degan maxsus soha bor. Afsuski, bu bizning adabiyotshunosligimizda yo`lga qo`yilgan emas. Chunki unga salkam dinni targ`ib qilish sifatida qarab kelingan va shu sababdan rad etilgan. Holbuki, o`tmish adabiy merosimizdagi manoqiblar, rivoyatlar, turli risola, me`rojnoma va qiyomatnomalar bu sohaning bizda g`oyat taraqqiy qilganini ko`rsatadi.

“Sad irshodi Mullo Sidqiy Xodayliqiy” (“Mullo Sidqiy Xodayliqiyning yuz nasihati”) Sharqda keng tarqalgan bo`lib, xalq donoligi namunasi - pand o`gitlar, maqollar, hikmatli so`zlar ko`rinishidagi qaydlardan iborat. Bu o`gitlarning ko`pchilik qismi umumiy g`oya jihatidan o`tmish donishmandlarining hikmatlari bilan hamohang hisoblanadi.

Sirojiddin Sidqiy umuminsoniy aqidalarga sadoqatgina insonga mumtozlik baxsh etishiga ishonadi va ishontirishga harakat qiladi. Adib o`z o`git`larida hayotni o`zining past-balandliklari, ezgulik va nayranglari bilan aks ettiriladi. Inson tabiatiga fazilatlar ham, zaifliklar ham begona emasligi uqtiriladi.

Sidqiy o`gitlarining asosiy g`oyaviy mazmunini donolik, hushyorlik, kechirimlilik, mardlik, ilm, oriyat, shukur shuningdek, adovat va xusumatdan saqlanish, ayollarga shafqat kabi umuminsoniy xislatlar tashkil etadi. Adib nasihatlarini asosan, axloq-odobga oid bo`lib, ular diniy aqidalar, o`zaro munosabat madaniyati va fazilat kasb etish yo`l- yo`riqlaridir.

Sidqiy fikricha “Dunyoning rohati uch narsadir: zikri subhon va tilovati Qur'on va ziyorati yoron”.

Zikri subhon, tilovati Qur'on,  
Yaxshi qilsang ziyorati yoron.  
Bu ishingdan savob topqaysen,  
Bas bu xizmat sorig`a chopqaysen.

Diniy- didaktik mavzudagi ushbu hikmat orqali yozuvchi kishilarni Qur'on tilovatiga, doimo Ollohni zikr etishga, do`st- birodarlarni doimo yo`qlab turishga chorlamoqda. Agar shunday qilsa savobga ega bo`lishi haqida aytilmoqda.

“Sad irshod Mullo Sidqiy Xodayliqiy” risolasining yetakchi g`oyalaridan bo`lgan do`stlikning (ziyorati yoron) Ollohning zikri va Qur'on tilovatidek yuksak tushunchalar bilan birga kelishi diniy va dunyoviy motivlarning hayotda ham ajratib bo`lmasligini ko`rsatadi. “Tangriga iymon keltirishdan keyingi amallarning afzali bu

odamlar bilan do`stlashishdir”,- degan hadis ham buni tasdiqlaydi.

Shoirning o`z tili bilan aytganda, bu kitobida u ma`rifatga sakkiz turli bob ochgan. Bular: sultonlar haqida, faqirlar axloqi haqida, qanoatning foydasi haqida, sukutning foydasi haqida, ishq va yigitlik haqida, qarilikdagi zaiflik sifatleri haqida, tarbiyaning ta`siri haqida va suhbat odoblari haqidagi hikmat, ibratlar.

Har kishi yetti nimarsa uzra ixtiyor qilsa, eranlar martabasig`a erishur: faqirlikni boylik uzra, ochliqni to`qliq uzra, shikastliqni zo`rliq uzra, xorlikni azizlik uzra, tavozeni manmanlik uzra, g`amni shodlik uzra, o`limni tiriklik uzra.

Bu boblarning har birida ma`lum miqdorda hikoyatlar bor, har bir hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar berilgan. Masalan, to`rtlik va baytlar yozuvchi mulohazalarini izohlashga xizmat qiladi.

Kishining esa, gar himmati baland

Dilin qilmag`ay oqcha mehrida band.

Agar tutsa, yo`qluq xirad yoqasin,

Tutar mardlar ham gadolik yo`lin.

To`rtlikning dastlabki ikki misrasida oliyhimmatlilik fazilati ulug`langan. Kimda insof bo`lsa, birovning qo`lidagi pulga qaramaydi. Undan ta`ma qilmaydi.

Bu asarda turli ijtimoiy tabaqalar ishtirok etgan: hukmdorlar, amaldorlar, shayxlar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, cho`ponlar, o`g`rilar, savdogarlar, pahlavonlar va boshqalar.

Xaloyiqning badtarrog`i ul kishidurki, begunoh xalqni dushman tutqay, mardumga izo va jafu yetkurmakni ravo ko`rg`ay va kishining xato va yozuqidin o`tmag`ay, uzrni qabul qilmag`ay.

Nasriy tarzda bayon qilingan ushbu ibratda bag`ritosh kimsalar qoralanmoqda. Ya`ni begunohlarni o`ziga dushman bilib, ularga jabr-u jafu yetkazishdan ham toymaydigan, kechirimlilik qo`lidan kelmaydiganlar insonlarning eng yomoni sifatida e`tirof etilmoqda.

Sidqiy Xundayliqiy o`z g`oyaviy niyati asosida muayyan sarguzashtni izchil mantiq bilan bayon etishga o`tadi. Tom ma`noda olganda, barcha hikoyatlar didaktik mazmundagi hikoyatlardir. Masalan:

To`rt nimarsa nodonlik dalili turur: biri o`zidin donoroq bila janjal qilishmak, ikkinchisi sinamag`on kishig`a ishonmoq, uchunchisi xotunlar makridan emin bo`lmoq, to`rtinchisi yosh bolalar bila o`lturushmoq (40,222).

Sidqiy Xundayliqiy kichik voqeani hikoya qilish orqali qissadan hissa chiqarish bilan kishilarga pand- nasihatlar qiladi, o`gitlar beradi. Ijtimoiy- siyosiy, axloqiy-

ta'limiy masalalarga doir xulosalar beradi.

Xuroson maliklardin biri malik Sulton Mahmud Subuqteginni tushunda ko`rdi. O`lganidan yuz yil so`ngra, barcha so`ngaklar to`kulmish edi. Illo ko`zlar o`ynar, dag`i nazar qilur. Bu tush ta`birina jumlai jahona ojiz qoldilar. Bir faqir kelib, bularning mushkulin hal etib, aytti: nechakim aning mulki o`zgalal alinda bo`lg`ay, muning ko`zlari ul mulk ortincha qolg`ay.

Ey necha bekni, malikni yebtur bu jahon,  
Kim alardin yer yuzinda qolmadi zarra nishon.  
Xayr qil, ey ne`mati ko`p xoja sen andin burun.  
Kim yurub degay munodiy qolmadi xoja falon.

Bunda avvalambor dunyoning o`tkinchilgi haqida fikr ketyapti. Bu dunyoga hech kim shoh ham, gado ham abadiy yashab qololmaydi. Bir kun kelib hamma vafot etadi. Shunday ekan xayr- ehson qil. Bu dunyoda o`zingdan keyin qoladigani - shu.

Sidqiy ushbu risolasida ayollarga “shahvat ko`zi birla emas, shavqat ko`zi birla” qarashga lozimligini uqtirib o`tadi. Adib ayollar zimmasidagi oilani saqlab qolishdek, sharafli burchni ulug`laydi. Uni muqaddas ijtimoiy vazifa sifatida hamma narsadan ustun qo`yadi.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, asar g`oyaviy mundarijasining ko`rinishicha, shoir pand- nasihat qilish yo`li bilan adolat va osoyishtalik o`rnatish, zolim hukmdor va amaldorlarni jilovlash, yurtni qat`iy qonun- qoidalar asosida boshqarish kerakligini aytib o`tgan. Adib orzu umid va maqsadlarini hikoyalarda to`g`rilik, rostgo`ylik, sadoqat va marhamat kabi oliyjanob insoniy fazilatlarni targ`ib etib xalq ongiga singdirishga harakat qiladi.

“Sad irshodi Mullo Sidqiy” asarining tuzilishiga e`tibor qaratadigan bo`lsak, asar qisqa- qisqa nasriy bayon qilingan hikmatlardan tashkil topgan. Ijodkor ushbu qisqa hikmatlardagi fikrini izohlash va to`ldirish maqsadida she`riy parchalardan foydalangan.

Asarning xalq donoligining namunasi sifatida e`tirof etilishining sababi shundaki, unda qisqa fikrlar orqali juda keng ma`nolarni ochib beruvchi ibratlardan tashkil topgan. Umuman olganda, xalqimiz o`z fikrini qisqa, lo`nda va asosli izohlay oladiganlarni dono sanaydi. Shuningdek, asar barcha mavzulardagi, masalan, diniy, ijtimoiy, maishiy hayot va boshqa mavzulardagi ko`plab ibratlar o`z ichiga qamrab olgan.



## OLIY TA'LIMDA "MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI" FANIDAN REFLEKSIV VIDEOTRENING YARATISH METODIKASI

**Qorayev Abduvafo Fazliddinovich**, katta o'qituvchi,  
e-mail: [qorayevabduvafo@gmail.com](mailto:qorayevabduvafo@gmail.com), tel: 97-9198274  
Samarqand davlat chet tillar instituti

### ANNOTASIYA

Maqolada oliy ta'lim muassasasida "**Matematika o'qitish metodikasi**" fanidan Refleksiv videotrening yaratish va refleksiv videotreninglar asosida talabalarning kasbiy o'sish samaradorligini oshirish metodikasi haqida fikr yuritilgan. Oliy ta'lim muassasasida "**Matematika o'qitish metodikasi**" fanidan Refleksiv videotrening yaratish va talabalarning kasbiy o'sishini optimallashtirish maqsadida dars jarayonlarida refleksiv videotreninglardan foydalanish nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Matematika o'qitish metodikasi, metodika, refleksiya, oliy ta'lim, o'zlashtirish, modernizasiya, kasbiy faoliyat, kompetensiya, refleksiv, kreativ pedagogika, videotrening, videotrening yaratish, refleksiv tajriba, natija, refleksiv tajriba, shaxs.

**Masalaning dolzarbligi:** Zamonaviy ta'lim jarayoniga ko'plab talablar qo'yiladi. Ushbu ro'yxatning boshida talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash turadi. Bu o'quv yuklamasini shakllantirish, talabaning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirish va uning intellektual salohiyatini oshirish zarurati hisoblanadi. Shuning uchun "refleksiya" so'zi yangi atama sifatida qo'llanilmay qo'ydi. Hozirgi refleksiya turli maqsadlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi: bunda talaba kayfiyatining nafaqat emosional muhitga, balki o'quv faoliyati, jarayoni va mazmuniga bo'lgan ta'siri ham o'rganiladi. Hozirgi kunda davlat ta'lim standartlarining o'ziga xos xususiyati ularning universal ta'lim harakatlariga, jumladan, universal refleksiya qobiliyatlariga yo'naltirilganligi hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada refleksiya deganda quyidagilar tushuniladi: faoliyatning ma'nosi va usulini anglash, natijalarni obyektiv baholash, muammolarni aniqlash. Loyiha usuli, pedagogik laboratoriyalar, munozaralar, tadqiqot va munozara texnologiyalari, muammoli o'qitish, ish texnologiyasi, portfel texnologiyasi kabi

individual ta'lim texnologiyalari refleksiya asoslangan va to'liq "refleksiya o'qituvchisi"ga aylanishi mumkin.


Refleksiv videotrening tinglovchilarning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy o'sishini ta'minlashga yordam beradigan jarayonlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Refleksiv videotreningni tayyorlash va o'tkazish bosqichlari an'anaviy bo'lib, standart o'quv proseduralaridan deyarli farq qilmaydi. Ularni ko'rib chiqamiz: videotreningni tayyorlash - maqsadni belgilash, ishtirokchilar to'g'risida ma'lumot to'plash, videooperatorning obyekti va batafsil tahlil mavzusiga aylanadigan asosiy fikrlarni ta'kidlash. Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning xarakteri trening davomida hal qilinadigan maqsad va vazifalarga bog'liq. Agar, masalan, talabalarning kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, unda ularning kasbiy tajribasi darajasi va hajmini hisobga olish hamda shaxsning aks ettirishga moyilligi to'g'risida tushuncha beradigan o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarni aniqlash muhimdir;

ikki muammoni hal qilishni ta'minlaydigan ssenariyni ishlab chiqish: refleksiv muhitni rivojlantiradigan sharoitlarni yaratish va odatda kasbiy amaliyotdagi vaziyatlarni ko'rib chiqadigan trening mavzusini "ushlab turish". Ushbu bosqichda ikkita muammoning yechimini ta'minlash muhimdir: refleksiv muhitni rivojlantiradigan sharoitlarni yaratish va odatda kasbiy faoliyatdagi vaziyatlarni ko'rib chiqadigan trening mavzusini saqlab qolish. Videotrening uchun refleksiyaning ikkita darajasi xarakterli: birinchisi ssenariy bo'yicha vaziyatni ishlab chiqish oxirida ko'rib chiqiladi, ikkinchisi holat videoyozuvini ko'rgandan keyin aniqlashtiriladi. Muhokama qilinayotgan bosqich guruh va har bir talabaning rivojlanish dinamikasini loyihalashni o'z ichiga oladi: refleksiv faoliyat rejimiga kirish, ularning harakatlarini qayta ko'rib chiqish, shaxsiy va keyin intellektual refleksiyaning ta'minlash, muammoli va ziddiyatli vaziyatni yaratish, refleksiya mexanizmini ishlab chiqish va uni mutaxassis qiyinchilik sharoitida qo'llash qobiliyati.

Videotreningning operasion va texnik jihozlash bosqichida an'anaviy replepratikalarni qo'llaniladi: masalan, ishtirokchining o'ziga xos kasbiy qiyinchiliklari sabablarini tahlil qilishdan iborat bo'lgan tayyorlov jarayoni.

Videotreningning afzalligi shundaki, unda ishtirok etish yaxlit refleksiv-rivojlantiruvchi muhitni shakllantiradi, agar treningda ishtirokchilar o'rtasida hamkorlik va individual refleksiya tufayli birgalikda yaratish va hamkorlik

munosabatlari mavjud bo'lsa, bu o'z - o'zini rivojlantirish va o'z - o'zini anglashning intensiv jarayonini ta'minlaydi. Bu o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishga va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradigan metodikadir.



### 1-rasm. Refleksiv videotreningni tayyorlash va o'tkazish bosqichlari

Oliy ta'limda "Matematika o'qitish metodikasi" fanidan "Ko'p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko'paytirish va bo'lish metodikasi" mavzusi bo'yicha videotreninglar yaratish jarayonini bir nechta usullarda ko'rib chiqamiz.

Umuman olganda, "Videotrening" so'zi videoyozuvdan foydalanishga asoslangan treningni anglatadi. O'quv maqsadlarida video yozib olishning ikkita asosiy usuli qo'llaniladi: tayyor videomateriallarni ko'rsatish (video ko'rish) va o'yin vazifalarini bajarish jarayonida yozuvdan foydalanish, uni ko'rish va tahlil qilish (video teskari aloqa).

O'quv maqsadlarida video yozib olishning ikkita asosiy usulidan biri bo'lgan tayyor videomateriallarni ko'rsatish (video ko'rish) usulini quyidagi masalalarni dars jarayonida qo'llash imkoniyatlari asosida ko'rib chiqamiz.

Refleksiv videotreningni o'tkazish strukturasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:


1. Dars boshlanishi oldidan talabalar bilan salomlashib, mavzu yuzasidan tushuntirishlar beriladi. Dars videotrening asosida o'tkazishga tayyorlanadi hamda

guruh talabalari kichik guruhlarga ajratib olinadi. Darsning baholash mezonini tushuntiriladi. Kichik guruhlarning nazariy va amaliy topshiriqlar asosida baholanishi, shular asosida talabalarning bilim va ko'nikmalari shakllantirishi tushuntiriladi.

2. Darsni o'tish uchun o'tiladigan mavzuning muammoviy yo'nalishiga mos bo'lgan video tanlab olinib, darsning asosiy mohiyati aniqlanadi hamda talabalarga mavzuga oid videodars asosida asosiy mazmuni tushuntiriladi, mavzuni mustahkamlash yuzasidan og'zaki so'rovlar o'tkazilib, amaliy topshiriqlar bajariladi:

- muammoni bayon qilish - "Ko'p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko'paytirish va bo'lish metodikasi" mavzusi bo'yicha muammolarni tahlil qilish;
- axborot berish - "Ko'p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko'paytirish va bo'lish metodikasi" mavzusi bilan tanishish;
- amaliyot - "Ko'p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko'paytirish va bo'lish metodikasi" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni bajarishda texnika va vositalardan foydalanish.

Videotrening uchun o'quv materialini tayyorlash vositalari o'quv rejaga muvofiq ravishda tanlanadi.




2.6-rasm. Refleksiv videotreningni o'tkazishni boshqarish infrastrukturasi

2-rasm. Refleksiv videotreningni o'tkazish metodikasi sxemasi

Refleksiv videotreningni o'tkazish tartibi quyidagicha bo'ladi:

"Ko'p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko'paytirish va bo'lish metodikasi" mavzusi video dars (<https://youtu.be/nihQtFWD8cM?si=ZmaxeNm9qXJYZHqH>) orqali tushuntirish (3-rasmga qarang). Ushbu videoni ko'rish jarayonida talabalar ko'paytirish va bo'lishni o'rgatish, hisoblash, yozishni o'rganish haqida tushunchalarga ega bo'lishadi, mulohaza yuritishadi va muhokama qilish uchun sonlarni ko'paytirish va bo'lish metodikasini kuzatishadi.




### 3-rasm. Ko‘p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko‘paytirish

Bundan tashqari, talabalar videodarsni tomosha qilishi davomida reflektiv treningni o‘tkazish uchun quyidagi asosiy savollarni tuzishadi:

- sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish metodikasini o‘rgatish bo‘yicha videoda to‘g‘ri ma’lumotlar berilganmi?
- sonlarni ko‘paytirish haqida qanday fikrdasiz? Uni o‘rganishda talabalarning psixologik portretini quring.
- sonlarni bo‘lishni bayon qiling? Bu funksiyalar nimalar bilan bog‘langan?
- sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish amallarini bajaring va ko‘rsatib bering? Bularga amaliy misollar keltiring.
- sonlarni ko‘paytirganda o‘nlar va birlar xonasi qanday shaklda bo‘ladi? Buni amalda ko‘rsatib bering.
- ko‘p xonali sonlarga misollar ayting? Bunda ko‘proq amaliy misollar keltiring.
- Sonlarni bo‘lish bo‘yicha ko‘rsatmalar bering (4-rasmga qarang)?

Bunday savollar talabalar “Ko‘p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish metodikasi” mavzusi bo‘yicha videodarsni shunchaki ko‘rmasdan, balki video tahlil qilish va u haqida fikr bildirish xususiyatini o‘rganishadi.





#### 4-rasm. Ko‘p xonali sonlarni bo‘lish

Ko‘rilgan material, tushunchalar va muammoviy yechimlarni refleksiv qayta ishlash yoki muhokama qilish hamda mavzu yuzasidan quyidagi keltirilgan savollarga javoblar berish:

- Video dars sizda qanday taasurot uyg‘otgan?
- Video dars asosida mavzuga oid qaysi tushunchalar sizda katta taassurot qoldirdi?
- Sonlarni ko‘paytirish va bo‘lishni o‘rganishni amaliy bajarib ko‘rganmisiz?

Tajriba konsepsiyasi va tushunilgan mavzuning xususiyatlarini aniqlash. Qo‘yilgan savollarga javoblarni muhokama qilish jarayonida talabalar “Ko‘p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish metodikasi” mavzusiga oid barcha tushunchalarni va bu nimaga olib kelishi mumkinligini aniqlashga harakat qiladigan oqim sxemasini tuzishadi. Mavzuga oid tushunchalarning mantiqiy zanjiri chiziladi. Talabalar bu vaziyatlardan qanday chiqish mumkinligi haqida taxminlarini bildirishadi.

Modellashtirish. Talabalar ushbu mavzuning dolzarbligini tushunish uchun shunga boshqa amallar haqida ma‘lumotlarni o‘rganishadi, matematikaga oid tushunchalarni yoki shunga o‘xshash videodarslarni muhokama qilishadi. Oxirida talabalar “Ko‘p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish metodikasi” mavzusini o‘rganishga oid xulq-atvor me‘yorlarini ishlab chiqadilar va video dars misolida



sonlarni ko‘paytirish va bo‘lishni o‘rgatish usullarining asosiy tushunchalarini amaliy ishlash bo‘yicha o‘rganish ko‘nikmalarini amalga oshiradilar.

Tadqiqotda xuddi “Ko‘p xonali sonlar konsentrida sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish metodikasi” mavzusidagi video darsga o‘xshash, ”Ona tili va o‘qish savodxonligi” va “Matematika o‘qitish metodikasi” fanlaridan ham o‘quv rejasidagi boshqa mavzular bo‘yicha ham video darslar tayyorlanib, har biri bo‘yicha videotreninglar tashkil qilingan

Xulosa qilib aytganda, refleksiv videotreninglar asosida talabalarning kasbiy o‘shini optimallashtirish metodikasi talabalarni assertiv xatti-harakatlarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, o‘quv faoliyatining barcha ishtirokchilarining texnologik va kommunikativ o‘zaro ta’siriga, rivojlanish jarayoni natijalarini diagnostika qilishga asoslangan texnologik va pedagogik tizimning bir turi sifatida shakllantirishga olib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bizyayeva A.A. Psixologiya dumayuyyego uchitelya: pedagogicheskaya refleksiya. Pskov, 2004.
2. Xalikov A. A., O‘qituvchilar pedagogik mahoratini kasbiy rivojlantirishda refleksiyaning ahamiyati // “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022 yil 30 noyabr. B. 363-368.
3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2007. 59 b.
4. Asfandiyorovich F. N. et al. BASICS OF PROGRAMMING FROM THE TEXTBOOK OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES CHAPTER PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE METHODOLOGY OF MULTIMEDIA //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 778-781.
5. Xasanovich, Prof L. M., et al. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX*, vol. 7, no. 03, 2021, pp. 167-171.
6. Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.
7. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITATION MODELI

ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 273–278.

8. Fayziyev, N. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMA ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI ANIQLASH. *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*, 1(01). Retrieved from <http://ojs.qarshidu.uz/index.php/con/article/view/175>

9. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o'g'li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. *World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics*, 1(1), 66–71. Retrieved from <http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11>

## **MA'RIFIY-BIOGRAFIK ROMANCHILIK TARIXI VA BUGUNI, TARAQQIYOT VA ISTIQBOLLARI**

***X.SH.Jo'raqulova***

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU*

*1-bosqich tayanch-doktoranti*

Biografiya – bir jamiyat hayotida muhim rol o‘ynagan, tarixiy burulish yasay olgan yoki unga sabab bo‘lgan insonlar, ma’lum bir sohada o‘z o‘rniga ega bo‘la olgan kishilar hayoti va faoliyatini ifoda etuvchi insoniyat bilan tengdosh bir bilim tarmog‘i deyish mumkin. Yunoncha bo‘lgan bu atama “umr tarixi”, “bitikdagi taqdir”, “hayot” ma’nolarini ifodalaydi. Avvallari tarix va tarixchilar doirasidagina o‘rin olgan biografiya, keyinchalik, zamonlar o‘tishi bilan alohida adabiy janr holiga keldi. Ma’lumki, tarix bugungacha yashagan kishilarning boshdan kechirgan voqealarini va qahramonliklarini zikr etadi. Voqeada ishtirok etgan, voqeaga sababchi bo‘lgan kishi va kishilar hayoti haqidagi hikoya hamda ma’lumotlar, bevosita hodisaning o‘zi qadar muhimdir. Hodisalar sababchisi va ishtirokchisi insonlar bo‘lganligi uchun, ularning hayoti va faoliyatini tadqiq hamda hikoya etmoq biografiyaning mavzusidir. Shuning uchun Sharq va G‘arb tarixchilarining ko‘pchiligi tarix tarmoqlari ichida biografiyaga katta ahamiyat berganlar.

Islom dunyosida biografiya avvalroq o‘z xususiyatlarini namoyon etdi. Chunki islom tarixchiligi hazrat Payg‘ambarning hayoti va faoliyati tadqiqi, ya’ni tarjimai holi bilan boshlanadi.... Bir hadisning naql etilishi atrofida zikr qilingan biografik ma’lumotlar ushbu hadis to‘g‘riligining ham dalili hisoblanadi.... Shu sababdan biografiya Islom tarixchiligida, ko‘pincha, juda muhim o‘rin tutgan, hatto o‘sha zamon ichida tarixga aloqador boshqa sohalarga ko‘ra ustunroq vaziyatga ega bo‘lgan.<sup>1</sup> Keyinchalik esa, biografiya boshqa fan tarmoqlari, jumladan adabiyot sohasi va uning janrlari tarkibiga qadar o‘sib kirdi. Tarixiy hodisa va jarayonlarni bayon qilishni, tarixiy shaxslar hayotini hikoya qilib berishni har qanday qalamkash eplay oladi. Ammo, qahramonining ruhiyatini, umuman ruhiy jarayonlarni ifodalash, badiiy tahlil etish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Ya’ni, Odil Yoqubov ta’biri bilan aytganda, tarixchining ishi tugagan joyda yozuvchining ishi boshlanadi. Sharq adabiyotida arabiy, forsiy tazkiralalar, manoqib-holotlar adabiy janrdagi

---

<sup>1</sup> Mustafu Eson. Tazkiradan biografiyaga. Monografiya.-T.: Mumtoz so‘z. 2012

biografiyaning ilk namunalari hisoblansa, turkiy adabiyotda bu holat Navoiy ismi bilan bog‘lanadi. G‘arb adabiyotida esa XVIII asr oxirida (rus adabiyotida Radishchevning 1789-yilda yozilgan “Fyodor Vasilevich Ushakov” romanlashtirilgan biografiyaning ilk namunalaridan) biografik asarlar adabiyot maydoniga kela boshlagan.

Inson bilan bog‘liq soha borki, biografiyaga murojaat qiladi. Adabiyotshunoslik fanida biografik metod (yondashuv), badiiy adabiyotda biografik janr bor. Jahon adabiyotida mashhur siymolar xarakterini yoritish orqali tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari, jamiyatning ma‘naviy-ruhiy holati, o‘shish-o‘zgarishlari jarayoni ishonarli ko‘rsatib berilgan asarlar talaygina.<sup>2</sup> Bunga jahon adabiyotida “Ajoyib kishilar hayoti” turkumi ostida chop etilgan qator asarlarni misol qilishimiz mumkin. O‘zbek adabiy tanqidchiligida esa “Hamza” (L.Qayumov, 1973), “Navoiy” (A.Qayumov, 1975), “G‘afur G‘ulom” (A.Akbarov, 1974), “Hamid Olimjon” (N.Karimov, 1979), “Oybek” (N.Karimov, 1985), “Abdulla Qahhor” (O.Sharafiddinov, 1989), “Otajon Hoshimov” (O.Sharafiddinov, 1990), “Cho‘lpon” (O.Sharafiddinov, 1993), “Usmon Nosir” (N.Karimov, 1993), “Qodiriy bog‘i” (U.Normatov, 1995), “Cho‘lpon” (N.Karimov, 2003), “Badiiy asar biografiyasi” (N.Rahimjonov, 2008), “Maqsud Shayxzoda” (N.Karimov, 2010), “Hamid Olimjon” (N.Karimov, 2013), “Usmon Nosir” (N.Karimov, 2022) kabi asarlar yaratildiki, bular orqali adabiy tanqidning badiiy ijodga yaqinlashib kelayotganiga guvoh bo‘lamiz. Adabiy tanqidchilikdagi badiiy-biografik yaratishlarni janrlarga ajratish mushkul.... unda taqriz, biografik material, portret-u memuar o‘zaro birlashib, yaxlitlashib ketadi.<sup>3</sup> Esse unsurlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Badiiylikdan ko‘ra ilmiylik, hujjatlilik, publitsistik ifoda tarzi bosh planda bo‘ladi. Poetikada va adabiyotshunoslikda bu hodisaga qator munaqqid va olimlar o‘zlarining turli munosabatlarini bildirganlar va hanuz bildirib kelmoqdalar. A.Rasulov va U.Rasulovalar Naim Karimovning “ma‘rifiy” va “ma‘rifiy-biografik” deb atagan romanlari janrini qat‘iy bir nom bilan belgilamaydilar. Bu turdagi romanlarni “tanqidchilikdagi romanlar” umumiy nomi ostida muhokamaga tortadilar. “Tanqidchilikdagi roman hali o‘zligini bus-butun kashf etgani yo‘q.... Tanqidchilik romanida dalil, ma‘lumot, biografiyaga oid holatlar o‘z huquqi uchun kurashadi.

<sup>2</sup> Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan. 2006. B-73.

<sup>3</sup> Rasulov A., Rasulova U. Badiiy-biografik asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti. - T.: Fan. 2011. 4-son. B-31.

Chunki ular yozuvchi biografiyasining uzviy tomonlari”<sup>4</sup> degan qarashlarni ilgari suradilar. Bu turdagi asarlarni badiiy adabiyotga emas, adabiyotshunoslik sohasiga dahldor deb hisoblaydilar.

S.Sodiq o‘zining “Ma’rifiy romanmi yo tadqiqot” maqolasida N.Karimovning “Cho‘lpon” ma’rifiy romani haqida fikr yuritib, bu asarning “fanimizni boyituvchi qimmatli tadqiqot” ekanligini yozadi. Maqola so‘ngida esa “Adabiyotshunoslik tadqiqotini ulkan olim Naim Karimov yozsin. Ma’rifiy romanni haqiqiy yozuvchi Xayriddin Sulton yaratsin”<sup>5</sup> degan xulosa bildiradi. Ya’ni, N.Karimov ma’rifiy deb nomlagan romanlarini munaqqid “tadqiqot” deb belgilaydilar va bu asarni adabiyotshunoslikdagi hodisa deb baholaydilar.

I.Yoqubovning qarashlari esa quyidagicha: N.Karimov izlanishlarining nafis so‘z san’ati, badiiy ijod va uning she’r hamda badiiy nasr shakllari, Cho‘lponning adabiyot va san’atga bo‘lgan qarashlari sistemasi haqida bo‘lishi uning adabiy-estetik hodisa ekanini ko‘rsatadi... Binobarin, biz “Cho‘lpon” asarida essegga xos ayrim xususiyatlar mavjudligini e’tirof etgan holda, N.Karimov uning janrini “ma’rifiy roman” sifatida to‘g‘ri belgilagan, degan fikrdamiz.<sup>6</sup>

Adabiyotda janrlararo mutatsiya hodisasi o‘zini namoyon qilishda davom etar ekan, so‘nggi yillarda yaratilayotgan asarlarning janrini qat’iy belgilash oson yumush emas. Ayniqsa, biografik asarlarning. Chunki har bir ijodkorning o‘z uslubi bor. N.Karimov ma’rifiy romanlarida hujjatchilik ustunlik qilsa, N.Rahimjonovning “Badiiy asar biografiyasi”da esse unsurlari va biografik tahlil usuli yaqqol ko‘zga tashlanadi. X.Sultonning “Boburiynoma” asari badiylashgan biografiyaning namunasi desak, Alisher Mirzoning “Kallaxonalik yigitcha” va “Musavvir” roman-dilogiyasi muallif avtobiografiyasi qalamga olingan roman-esse deya ayta olamiz. Yozuvchi – Hamid Burxonning hujjatli roman deb belgilagan “Ko‘prik” romani esa xotira va memuar asar xususiyatlarini o‘zida namoyon qilgan roman-esse sifatida adabiyot xazinasiga qo‘sha olamiz.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, roman-esse bilan ma’rifiy roman bir hodisa emas. To‘g‘ri, ma’rifiy romanlarda ham esse alomatlari bor, albatta. Lekin ma’rifiy romanlar

<sup>4</sup> Rasulov A., Rasulova U. Badiiy-biografik asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti. - T.: Fan. 2011. 4-son. B-31.

<sup>5</sup> Sodiq S.Ijodning o‘ttiz lahzasi. –T.: Sharq. 2005. B-182.

<sup>6</sup> Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Monografiya. –T.: Nurafshon bussines. 2021. B-153.

boshdan so‘ngiga qadar esse janrida yozilmaganligi, ilmiy dalillarga boyligi va bu dalillarning asoslanganligi bilan ham ajralib turadi.

V.G.Belinskiy biografik romanda: 1) to‘qimaga yo‘l qo‘yilmasligi; 2) dalillar jonli, ko‘tarinki ruhda berilishi; 3) hujjatlar voqea (sahna)larni tashkil etishi; 4) o‘zaro yozishmalar dialog shaklida berilishi; 5) voqea rivoji umumiy g‘oya tomonidan boshqarib borilishi lozimligini ta’kidlaydi. (Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan. 2006. B-74) Roman-esseda esa bunday talablar yo‘q, u ancha erkin va ilmiylikdan ko‘ra badiiylikka xosligi bilan farqlanadi.

Xulosa qilganda, romanchilikdagi esselashuv hodisasi va badiiy hodisaning ilmiylikka yaqinlashuvi jarayonida yuzaga kelgan bu tur asarlar har tomonlama chuqur o‘rganilishini kutmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Mustafon Eson. Tazkiradan biografiyaga. Monografiya.-T.: Mumtoz so‘z. 2012
2. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan. 2006. B-73.
3. Rasulov A., Rasulova U. Badiiy-biografik asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti. -T.: Fan. 2011. 4-son. B-31.
4. Sodiq S.Ijodning o‘ttiz lahzasi. –T.: Sharq. 2005. B-182.
5. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Monografiya. –T.: Nurafshon bussines. 2021. B-153.



## “TASVIRLAR BILAN ISHLASHNI BOSHLASH” MAVZUSINI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Nazarov Bahodir Abdusamatovich**

TATU Samarqand filiali “Kompyuter injiniringi” fakulteti dekani

**Telefon: +998(97) 287 83 77**

**e-mail: [nazarovbahodir82@gmail.com](mailto:nazarovbahodir82@gmail.com)**

### ANNOTASIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan “Tasvirlar bilan ishlashni boshlash” mavzusini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida multimediali taqdimotlar yaratish va ulardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini tashkil qilish masalalari muhokoma qilingan.


***Kalit so‘zlar:** Informatika va axborot texnologiyalari, tasvirlar bilan ishlash, dasturiy vosita, elektron qo‘llanma, gipermatn, ovoz, grafika, video, test, multimedia, animasiya, imitasion model, umumiy o‘rta ta‘lim, dasturiy vosita.*

**Kirish.** Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 5-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan “Tasvirlar bilan ishlashni boshlash” mavzusini an‘anaviy ta‘lim metodikasida o‘quv mashg‘ulotlari asosan dars beruvchi tomonidan doskada bo‘r yoki video proyektrda oddiy slaydlar asosida tushuntiriladi. Kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari yordamida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan dars berishda o‘quv materiallarini modellar yordamida namoyish qilish orqali ta‘lim oluvchilarga tushuntirish mumkin. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish boshqa fanlarga nisbatan alohida o‘rinda turadi. Buning boisi, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani zamonaviy kompyuter va dasturiy ta‘minotning asosini tashkil etadi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining “Matnli hujjat bilan ishlashni boshlash”, “Tasvirlar bilan ishlashni boshlash”, “Diagrammalar bilan ishlashni boshlash”, “Dasturlashni boshlash”, “Qidiruv tizimlarida ishlashni boshlash” mavzulari asosiy hisoblanib, bu bo‘limlarni o‘zlashtirgan o‘quvchilarda dasturiy ta‘minot yaratish uchun kerakli bilim va ko‘nikma hosil bo‘ladi. Shuning uchun ta‘lim oluvchilarga ushbu mavzularni o‘zlashtirishlari maqsadida kerakli amaliy va nazariy bilimlarni berish lozim. Hozirgi

zamon ta'lim tizimida ushbu masalani yechish uchun turli ko'rinisdagi usul va metodikalarni qo'llash mumkin. Bulardan biri dasturiy vositalar asosida yaratilgan elektron qo'llanma bilan dars jarayonini tashkil qilishdan iborat.

Maktab darsligida berilgan navbatdagi mavzu "Tasvirlar bilan ishlashni boshlash" bo'lib, bu mavzu ham darslikda o'quvchilarga tushinarli qilib matnlar va tasvirlar asosida berilgan bo'lsa, tadqiqotda esa yuqoridagi keltirilgan mavzu kabi dasturiy vositalar asosida ko'rgazmali va animatsion harakatlar bilan qadamma-qadam tushintirilgan.

Yuqorida 1-rasmda berilgan elektron qo'llanmaning muqovasidagi "2-dars. Tasvirlar bilan ishlashni boshlash" mavzusi tugmasiga murojaat qilamiz (1-rasmga qarang).



### **1-rasm. Tasvirlar bilan ishlashni boshlash oynasi**

Bu mavzu ham darslikda quyidagicha matn va tasvirlar bilan berilgan:

Bu modulda yakuniy loyiha ustida ishlashingizda yordam beruvchi raqamli tasvir bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirasiz. Unda quyidagilarni o'rganasiz:

- turli foydali va qiziqarli ko'nikmalardan foydalanib tasvirlarni yaratish va ularni tahrirlash;
- chiziq va mo'yqalam vositalaridan foydalanish hamda ular yordamida tasvirlar hosil qilish;
- qalam vositasidan foydalanish (qo'lda tasvir yaratish uchun foydalaniladigan vosita);

- shakllar yaratish va ularni bo'yash;
- tasvirlardan nusxa olish va ularni o'chirish;
- tahrirlangan tasvirlarni saqlash;
- shaxsiy kino qahramoningizni yaratishda kerakli ko'nikmalarni rivojlantirish.

Shuningdek, quyidagilarni ham bilib olasiz:

- chegara chiziqlari (kontur) bir rangda va ichki qismi boshqa rangda bo'yalgan shakllar yaratish.

Boshlashingizdan avval Quyidagilarni bilishingiz kerak:

- sichqonchadan foydalanishni, jumladan, ekran bo'ylab ko'rsatkichni harakatlantirish va tugmalaridan foydalanishni;
- dasturiy ta'minotni tanlash va ishga tushirishni (kompyuterda foydalaniladigan dasturlar);


Tasvirlar yaratish va ularni tahrirlash juda qiziq mashg'ulot hisoblanadi. Ushbu ko'nikma sizga boshqalar tomonidan yaratilgan tasvirlardan foydalanib chizishni emas, balki o'zingiz xohlagandek o'z tasvirlaringizni yaratish imkoniyatini beradi. Ko'nikmalingizni ishga solgan holda yaratgan tasviringizni tomosha qilish zavqlanish his-tuyg'usini hosil qiladi.

Bu modulda dasturiy ta'minot sifatida Microsoft Paintdan foydalanishingiz mumkin. Bu grafik materiallar yaratish va tahrirlash uchun foydalaniladigan dasturiy ta'minot. Ushbu dasturda tasvirlar yaratishda yordam beruvchi juda ko'plab uskunalar mavjud. Tasvir bilan ishlovchi turli boshqa dasturiy ta'minotlar ham bor, ularning ixtiyoriy turlaridan foydalanishingiz mumkin. Ushbu dastur interfeyslarida bir-biriga o'xshash tugmalar, ikonkalar va uskunalar mavjud.

Maktab darsligida bu ma'lumotlardan tashqari amaliy ko'nikma va mashg'ulot tarzida line uskunasidan foydalanish, pencil uskunasidan foydalanish, brush uskunasidan foydalanish, chiziqning qalinligi va rangini o'zgartirish, shakllar chizish, tasvir qismlaridan nusxa olish, kesib olib tashlash yoki joylashtirishdan foydalanish, eraser uskunasi va tasvirni saqlashlar haqida qisqacha matnli va tasvirli ma'lumotlar keltirilgan.


Tadqiqotda tasvirlar bilan ishlashni boshlash mavzusi bo'yicha ham quyidagi ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bularni o'quvchilar takroran ko'rib o'rganishlari, o'qituvchi kumagisiz ham mustaqil o'rganishari mumkin. Tasvirlar bilan ishlashni boshlash oynasida ham oldinga va orqaga o'tkazish tugmalari mavjud bo'lib ularga murojaat

qilinganda, tasvirlar bilan ishlash haqida ma'lumotlar ketma-ket namoyish etiladi (2-rasmga qarang).




## 2-rasm. Paint dasturi uskunalaridan foydalanish oynasi

Paint dasturi uskunalaridan foydalanish oynasida ko'rinib turgan uskunalarga murojaat qilinganda har biri bajaradigan vazifasi bo'yicha alohida oyna ochilib ishlash jarayoni animatsiya yordamida ko'rsatib o'tilgan. Shular jumlasidan qalamcha belgisi bosilganda Pencil uskunasiidan foydalanish bo'yicha oyna ochiladi (3-rasmga qarang).



### **3-rasm. Pencil uskunasidan foydalanish oynasi**

Pencil uskunasidan foydalanish oynasi ochilganda faol bo‘lganligi uchun qalamcha yordamida mustaqil ishlash imkoni ham mavjud. Qolgan uskunalarni ishlash jarayoni ham huddi shu singari animatsion harakatlar bilan tushintilgan bo‘lib tasvirlar bilan ishlash uchun ishlatiladigan Photoshop dasturida ham ishlash jarayoni keltirilgan (4-rasmga qarang).



#### **4-rasm. Photoshop dasturidan foydalanish oynasi**

Tasvirlar bilan ishlashni boshlash mavzusiga tegishli bo'lgan yana boshqa to'liq ma'lumotlar dasturiy vositalar asosida yaratilgan elektron qo'llanmada keltirilgan. Bulardan tashqari har bir mavzu tugashida mavzular bo'yicha bilimlarni baholash uchun testlar ham kiritilgan bo'lib test variantlarini va mavzularini tanlash, natijalarini ko'rish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda 5-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishda zamonaviy dasturiy vositalar asosida multimediali taqdimotlar yaratish va ulardan foydalanib dars mashg'ulotlarini tashkil qilish dolzarb masalalardan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Lutfullayev M.X. Multimediali didaktik vositalar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish // Ta'lim va tarbiya. –Toshkent: -2003-y. -№3-4. B. 55 - 57.
2. Lutfillayev M.H., Fayziyev M.A. Multimediali elektron darsliklarda o'qitish metodikasi // Uzluksiz ta'lim. –Toshkent, 2002-y. -№4. -B. 79-81.
3. Lutfillayev M.H. Elektron darsliklardan o'quv jarayonida foydalanish // Xalq ta'limi jurnali. -Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 92-93.
4. Lutfillayev M.H. Multimediali elektron darsliklar yaratish talablari // Boshlang'ich ta'lim. –Toshkent: -2003-y. -№4. -B. 20-21.



5. Asfandiyorovich F. N. et al. BASICS OF PROGRAMMING FROM THE TEXTBOOK OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES CHAPTER PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE METHODOLOGY OF MULTIMEDIA //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 778-781.
6. Xasanovich, Prof L. M., et al. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX*, vol. 7, no. 03, 2021, pp. 167-171.
7. Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.
8. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITATION MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 273–278.
9. Fayziyev, N. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO'LLANMA ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI ANIQLASH. *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*, 1(01). Retrieved from <http://ojs.qarshidu.uz/index.php/con/article/view/175>
10. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich, & Toxirqulov Zufar Jurabek o'g'li. (2023). Registering and Creating Presentations on prezi.com. *World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics*, 1(1), 66–71. Retrieved from <http://wos.semanticjournals.org/index.php/JPL/article/view/11>

## **ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA BADIYYAT MASALASI**

**Bahronova Zarina Ithomovna**

Buxoro davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada soʻz sanʼatining buyuk dahosi Navoiy hazratlarining “Sabʼai sayyor” dostonida qoʻllanilgan sheʼriy sanʼatlar vositasida badiiyat masalasiga alohida eʼtibor qaratildi.

**Аннотация:** В статье особое внимание уделяется использованию выразительных средств как источник художественности в произведении “Семь планет” поэта Навои.

**Annotation:** The article pays special attention to the issue of art through the poetic arts used in the epic of the great genius of the word art, the cause of Hazrat Navoi.

**Kalit soʻzlar:** “Sabʼai sayyor”, misra, bayt, sheʼriy sanʼat, hamd, naʼt munojot, mubolagʼa, tashbeh, rujuʼ, mohiyat, badiiyat.

**Ключ слова:** “Семь планет” байт, стих, похвала, наʼт, моляба, преувеличение, сущность.

**Key words:** “Seven planet”, byte, verse, poetic art, praise, naʼt, supplication, exaggeration, assimilation, essence, fiction

“Ming yillik tarixga ega boʻlgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha sheʼr ahlining diqqat markazida boʻlib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida soʻz borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga eʼtibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda sheʼriy sanʼatlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy sanʼatkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Maʼlumki, sheʼriy sanʼatlar badiiy asarda ifodalangan gʻoyalarning hayotiyroq, taʼsirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalanirishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini taʼminlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. She'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi. She'riy san'atlar, avvalo, mantiqiy zaminga ega bo'lishi, ya'ni qo'llanayotgan san'at hayot mantig'iga mos kelishi, unga zid bormasligi shart."(1,4-5b)

Shu jumladan, Hazrat Navoiy asarlarida, xususan, Xamsaning to'rtinchi "Sab'ai sayyor" dostonida ham badiiy san'atning yuksak namunalariga bevosita guvoh bo'lamiz. Navoiy dahosidek buyuk so'z san'atkorining asar badiiy qimmatini, novatorligini yaratishdagi mahorati barchaga birdek ma'lum bo'lgani kabi, uning nasr hamda nazmda yaratgan jamiki asarlari, cheksiz merosi biz avlodlar uchun beqiyos xazinadir. Hazrat Navoiy - cheksiz bir ummon. Uning qalami lutfidan to'kilgan har bir misra mana shu hadsiz dengiz tubiga cho'kkan marvaridlardir. Quyida biz marvaridlar ichidan "Sab'ai sayyor" deya atalmish dur bag'rida jo bo'lmish badiiyat jilolariga nazar tashlaymiz:

Ey siposing demakda el tili lol,

Elga til sendin o'ldi tilga maqol (2,9b).

Dostonning ibtidosida keltirilgan ushbu bayt bevosita ollohga hamd-u sanodir. Ya'nikim, asar yaratish an'anasiga ko'ra ular ollohga hamd, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga na't hamda munojot kabi qismlar bilan boshlanadi. Biz tahlil etmoqchi bo'lgan ushbu misralar ham ayni ilk bob namunalaridan biridir. Bayt zamirida ko'rishimiz mumkin bo'lgan badiiy san'atlardan birinchisi bu – mubolag'a demakdir.

Mubolag'a – arab tilida "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'zi oldida yorqinroq gavdalanadi. Mubolag'a tablig', ig'roq,

g'uluv deb atalgan 3 turga bo'linadi. Shular ichidan tablig'- aqlan ishonish mumkin, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lgan mubolag'adir (1, 9-10b). E'tibor bering: haqiqatan ham yaratgan ollohni ta'riflashga tilimiz ojiz, uni tasvirlash uchun esa qalam noqis. Navoiy hazratlari ham shuni ta'kidlayaptilar: ey siposing demakda, ya'ni seni ta'riflashga elning tili lol (ojiz), chunki sen insondek zotni yaratding. Ne aytsak ham, ne desak ham, ne qilsak ham bizni yaratguvchi zotning ta'rifiga bu dunyoning eng buyuk so'zlari ham kamlik qiladi. Tahlilni izchil davom ettiradigan bo'lsak, misralar qatida yashirin yana bir badiiy san'atning guvohi bo'lamiz. Bu ishtiyoq san'atidir. Til, tili, tiliga so'zlari o'zaro o'zakdoshlik hosil qilib, ishtiyoq san'atini vujudga keltirgan. Bundan tashqari iyhom san'ati ham mavjud bo'lib, ya'nikim, tili lol bo'lmoq ta'riflay olmaslik, "elga til o'lmoq" iborasi esa yaratish, bunyod qilish, aniqroq qilib aytganda, insonning yaratilishi nazarda tutilgan. "Tilga maqol" bo'lsa insoniyat uchun muhim hisoblangan nutqning ato etilishini nazarda tutadi.

Yetti gunbad agarchi minorang,  
Yetti afsona lek rango-rang (2,9b).

Navoiy hazratlarining yana bir baytlarini istifoda etib, badiiy tasvirning naqadar buyuk rassomi ekanliklarini ta'kidlamay o'tishning o'zi bir gunoh. Gunbad-gumbaz, osmon, aylanuvchi falak, gardun. Minorang atamasi esa Navoiy asarlari uchun tuzilgan maxsus lug'atlarda "shisharang, ko'kimtir, havorang" kabi ma'nolarni anglatadi. "Yetti" sonining qo'llanilishi doston

mohiyati uchun yangilik emas. Bizning diqqat-e'tiborimizni tortuvchi o'rin bu bevosita ikkinchi misra. Undagi so'zlar shuurimiz uchun begona emas, ammo xonalar ichma-ich bo'lgani singari bu yerda ham ma'no "ichma-ichligi" mavjud. Yuqorida keltirilgan ta'riflar aynan iyhom san'ati qirralariga muvofiq keladi.

"Iyhom"- arab tilida "shubhaga solish" degan ma'noni ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda esa iyhom haqiqiy va majoziy ma'nolarga ega, yoxud shaklan bir, ma'no jihatdan esa har xil bo'lgan (jinsdosh) so'z yoki so'z birikmasini she'riyatda qo'llagan holda bir baytda ikki xil ma'noni ifodalash san'atidir (1,74b). "Yetti afsona lek rango-rang" deyilganda, "rango-rang" birinchidan asl ma'nosini saqlagan bo'lib, sariq, yashil, qora kabi ranglarning xilma-xilligi ma'nosini ifodalagan. To'g'ri, yetti hikoya ham yetti musofir tomonidan yetti xil rangdagi qasrda aytilgan. Biz uning ilk ma'nosini isbotladik. Ammo bu yerda afsonalarning qanday rangda ekanligi emas, balki syujetdagi o'zgachaliklar,

hikoyalar mazmun-mohiyatidagi turfa xilliklar “rango-rang” o`xshatilishi zamirida asoslab berilyapti.

Yetti gardun demayki yetti lagan,

Har biri ichra sham nur afgan(2,10b).

Ushbu baytda ijodkor fikridan qaytib, bevosita ruju' san'atidan foydalangan.

Ruju'- arabcha “qaytish” ma'nosini bildirib, she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikri, qo`llagan badiiy tasviriy vositasidan qaytgandek bo`lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to`ldirish usulidir. Mumtoz she'riyatimizda ruju' usuli, ayniqsa, tashbih qo`llangan misralarda ko`proq uchraydi (1,47b) Bayt mazmuni quyidagicha: “Bular yetti falak emas, balki yetti lagandir, har birining ichida nur taratuvchi sham bor. Hazrat Navoiy oldingi baytda ularni gardunga o`xshatgan bo`lsalar, keyingi baytda fikrlaridan qaytadilar, yo`q ular gardun emas, balki lagan deb ataydilar va ularning har biri ichida nur taratuvchi sham borligini ta'kidlaydilar. Keyingi baytda bu shamlarning nima ekanligi bevosita oydinlashadi:

Har lagan durji kavkabafruzi,

Kavkabi gavhari shab afruzi.(3,8b)

Har laganda kechasi yonib turuvchi gavharmisol sadafday yulduzlar mavjud.

Demak, Navoiy bobomiz gardun, falakni laganga, undagi yulduzlarni esa nur taratuvchi shamga o`xshatyaptilar. Yuqorida ta'kidlab o`tganimiz singari ruju' san'ati, asosan, tashbihli baytlarda qo`llanilishini hisobga oladigan bo`lsak, bu o`rinda ham ayni tashbih(o`xshatish)ning yorqin namunasiga duch kelamiz.

Tashbeh san'ati. Tashbeh – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo`lib, o`xshatish ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o`rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko`ra o`xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o`quvchi ko`z o`ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalanitirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g`oyasini o`quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

Tashbeh san'ati quyidagi to'rt juzv asosida yuzaga keladi:

1. Mushabbah – nima o`xshatilgan bo`lsa, o`sha narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbah bih – nimaga o`xshatilgan bo`lsa, o`sha narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shibh – o`xshatish sababi.

4. Vositai tashbeh (odoti shibh) – o`xshatish vositasi(1,14b). Tashbihning go`zal namunalarini tubandagi baytlarimizda ham ko`rib o`tamiz:

Rahmatingdin ziyo tutub har sham,

Bir shabistonni yorutib har sham.

Sham yo`q, yetti lubati raqqos,

Haftaning har kuni birisiga xos.

Borcha kunduz guli nuhufta kibi,

Kecha lekin mahi du hafta kibi (3,8b).

Nuhufta-yashirin (4,211b). Lubati-o`ynoqi (4,145b). Agarda olloh o`z rahmatini yog`dirmas ekan, u xohlamas ekan, hattoki bir kichkinagina sham ham nur, ziyo tarata olmaydi, shabiston-zulmanitnida yoritishga ojiz. So`z isboti ila go`zal bo`lganidek, ijozatingiz ila fikrimizni tavhid kalimasi ila asoslasak: “Allohdan o`zga iloh yo`qligiga, U Zotning yakkayu yagonaligiga va sherigi yo`qligiga guvohlik beraman. Mulk ham hamd-u sano ham Unikidir. Tiriltiradigan ham, o`ldiradigan ham Udir. U Zot hech qachon o`lmaydigan doimiy tirikdir. Yaxshilik(baxt-saodat) Uning izmidadir. U barcha narsaga qodir Zotdir(5,42b).

Keyingi baytda esa fikridan qaytib, ularni shamga emas, balki o`ynoqi raqqoslarga o`xshatadi. Bu yerda ruju` san`atining mavjudligiga shubha yo`q. Haftaning har kuni birisiga xos deyilganda ularning hafta kunlari bilan bog`liqligi, kunduzi yashiringan guldek bo`lsa, kechasi ikki haftalik oydek bo`lib ko`rinadilar. Kecha hamda kunduz so`zlari o`zaro zidlikni yuzaga ketirib, tazod san`atini hosil qilgan bo`lsa, gulga va oyga mengzash o`z o`rnida tashbeh san`atini ro`yobga chiqargan.

Sen-sen ul mehri beadilu badal,

Kim, sanga matla`o`ldi subhi azal.

Chunki ul subh nurung etti zuhur,

O`ylakim, tiyra shom jabhayi hur.

Harnekim qatmi adamda erdi nihon,

Xoh ahli jahonu xoh jahon.

Borisi kiydilar libosi vujud,

Bud xaylig`a kirdi har nobud.

Zohir etti adam shabistoni,

Yuz ming ozod sarvi bo`stoni.

Topti rangi vujud lolavu gul

Ham o`shul rang turrayi sunbul.



Nargis ul nur birla ochti basar,  
Adam uyqusidin ko`zinda asar.  
Bog`i ruxsori topti sabzayi xat,  
Donayi birla ul xat ichra nuqat.  
Sabza atrofida nasimi bahor,  
Sumanu sunbul ochti laylu nahor(3,10b)

Badiiylik ibtidosidan yaralgan o`lmas satrlar mohiyatiga quloq tutamiz: “Sen-sen o`sha bebadal va mehrgiyo azaliy tong. Sening nuring paydo bo`lishi bilan qorong`u tundagi yuzi go`zal oy ko`rinadi, yo`qlik dunyosida pinhon bo`lgan ahli jahon va jahonning barchasi mavjudlik libosini kiyadilar, yuz minglab bo`stonning sarvlari paydo bo`lib, lola, sunbul, nargis, suman, binafsha kabi gullar yo`qlik uyqusidan uyg`onib, bog` ruxsorida ko`karib, kecha-yu kunduz bahor shabadasida atrofga xushbo`y hid taratib, rango-rang go`zal manzalarni vujudga keltiradi”. “Sen-sen ul mehri beadilu badal” misralari tongning azaliyligi va abadiyligi mehrgiyoga qiyos etilishiga ishora qilib, istiora san`atini vujudga keltiradi. Istiora bu- arabcha so`z bo`lib, “biron narsani vaqtincha qarzga olmoq” degan ma`noni ifodalab, adabiy asarda so`zni o`z ma`nosidan boshqa bir ma`noda, aniqrog`i, uni o`z ma`nosida emas, balki majoziy bir ma`noda qo`llash san`ati sanaladi(1,53b). Subh, ya`ni tongga nisbatan ham ana shunday munosabat ko`rsatilgan. Subh va shom, yo`qlik va mavjudlik(bud va nobudlik), zuhur va nihon so`zlari baytlarda tazod san`atiga moyillik ko`rsatgan. “Bud xaylig`a kirdi har nobud” bir qarashda ham tazod, ham iyhom san`ati bor deb o`ylayman. Birinchidan, tazod qo`llanganda iyhom san`ati ko`rinib turishi mumkin, ammo iyhom san`ati qo`llansa tazodga o`rin qolmaydi. Sababi iyhom san`ati yuzasidan tahlilga tortadigan bo`lsak, “bud” va “nobud” so`zlari umuman boshqa-boshqa ma`nolarda keladi. Bud-diniy jihatdan olib qaraydigan bo`lsak, buddizm oqimi. Nobud-bechora, badbaxt kabi ko`chma ma`nolarda qo`llanilish holatlarini ko`rishimiz mumkin. Negaki, buddizm biz uchun g`ayri-begona din demak. Uning xaylig`a kirish, ya`ni, o`z dinini qo`yib uni qabul qilish, umuman olganda badbaxt, beburd, aqlan nobud kishining ishidir. “Borisi kiydilar libosi vujud”- misralari husni ta`lilning yorqin namunasi. Libosi vujudni kiyish-bor bo`lmoq, mavjud bo`lmoq, paydo bo`lmoq tushunchalarini anglatadi.

Husni ta`lil- arabcha “chiroyli dalillash” ma`nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror- bir hodisaga biron sabab ko`rsatish san`ati shunday

nomlanadi. Yuqoridagi baytda ular libosi vujudni kiyib paydo bo`ldilar. Mavjudlik libosi - fikrni asoslash uchun ro`yobga chiqqan dalildir. Bo`ston, lola, gul, sunbul, nargis, bog`, sabza, nasim, bahor, suman, nahor kabi so`zlar o`zaro mutanosiblikni hosil qilib, tanosub san`atini ro`yobga keltirgan. Tanosub- she`r baytlarida ma`no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so`zlarni qo`llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san`ati hisoblanadi (1,80b). Biz, bayt mazmuniga yanada ko`rk bag`ishlovchi boshqa san`atlarni ham kuzatishda davom etamiz. Nargis gulining basar ko`zlarini ochishi, ya`niki, uyqudan uyg`onishi tashxisning g`oyatda go`zal namunasi yaratdi desak, mubolag`a bo`lmaydi. Negaki, uyqudan uyg`onish holati, ko`proq insoniyatga xos vaziyat. Bu yerda tashxis san`ati vositasida nargis gulining “uyqudan uyg`otilishi” uning subhi sodiqda- tong saharda ochilish jarayoniga ishora sifatida keltirilgan. Tashxis-arab tilida (“shaxslantirish”), hayvonlar, qushlar, o`simlik, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko`chirish san`atidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. A. Hojiahmedov. She`riy san`atlar va mumtoz qofiya.- T.: Sharq, 1998.-160b.
2. Alisher Navoiy. Sab`ai sayyor. Nasriy bayoni bilan. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi. 1991. Saidbek Hasanov nashri .-542b.
3. Alisher Navoiy. Sab`ai sayyor. - Alisher Navoiy Mukammal asarlar to`plami 20 jildlik, 10-jild. Toshkent: Fan, 1992. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni asosida Marg`uba Mirzaahmedova -448b.
4. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug`at.- Toshkent: Fan, 1993.-375b.
5. Ahmad Hodiy Maqsudiy. Muallimi soniy.-T.: Movarounnahr, 2020.-79b.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ РОДНЫМ ЯЗЫКОМ

*Исламова Эзола Йоркиновна*

Студент Навоийского государственного педагогического института

**АННОТАЦИЯ.** В статье рассматривается использование инновационных образовательных технологий при обучении родному языку.

**Ключевые слова:** родной язык, инновация, технология, образовательная технология, интерактив, метод.

В современном быстро развивающемся мире преподавателям крайне важно постоянно исследовать новые способы улучшения качества обучения учащихся. Одним из эффективных способов добиться этого является интеграция инновационных технологий в классы по изучению языков. Одним из ключевых преимуществ внедрения инновационных технологий в языковые занятия является то, что они могут сделать процесс обучения более интерактивным и увлекательным для студентов. Используя такие инструменты, как приложения для изучения языка, симуляции виртуальной реальности и онлайн-ресурсы, преподаватели могут создать более динамичный и захватывающий процесс обучения, отвечающий потребностям и интересам отдельных учащихся. Это не только помогает студентам сохранять мотивацию и заинтересованность, но также позволяет им глубже понимать и ценить язык, который они изучают. Использование инновационных технологий на языковых занятиях также может помочь улучшить языковые навыки учащихся более эффективным и действенным образом. Например, приложения для изучения языка могут предоставить учащимся мгновенную обратную связь по их произношению и грамматике, что позволяет им выявлять и исправлять ошибки в режиме реального времени. Моделирование в виртуальной реальности также может создать реалистичную среду изучения языка, которая позволит учащимся практиковать свои языковые навыки более захватывающим и увлекательным способом. Используя эти технологии, студенты могут улучшить свое знание языка быстрее и с большей точностью.

Внедрение инновационных технологий в языковые занятия также может помочь удовлетворить разнообразные стили обучения и предпочтения студентов. Например, учащимся, изучающим визуальные предметы, могут быть полезны интерактивные приложения для изучения языка, которые используют графику и анимацию для закрепления ключевых понятий, а учащимся, изучающим слух, могут быть полезны онлайн-ресурсы, которые предоставляют аудиозаписи и практику произношения. Предлагая разнообразные технологические инструменты и ресурсы, преподаватели могут создать более инклюзивную и доступную среду обучения, отвечающую потребностям всех учащихся. Еще одним преимуществом использования инновационных технологий на уроках языка является то, что они могут способствовать совместному обучению и общению между студентами. Например, онлайн-платформы и инструменты социальных сетей могут облегчить общение и сотрудничество между студентами, позволяя им практиковать свои языковые навыки в социальной и интерактивной среде. Это не только помогает учащимся развивать свои знания языка, но также способствует развитию чувства общности и товарищества среди одноклассников, что может улучшить общий опыт обучения. Более того, использование инновационных технологий на уроках языка также может помочь подготовить учащихся к требованиям цифровой эпохи. В современном глобализованном мире владение иностранными языками становится все более важным для карьерного роста и международного общения. Внедряя инновационные технологии в языковые занятия, преподаватели могут помочь учащимся развить навыки цифровой грамотности, необходимые им для преуспевания во все более взаимосвязанном мире. Это может включать в себя такие навыки, как онлайн-исследования, общение по электронной почте и в социальных сетях, а также способность ориентироваться и использовать приложения и программное обеспечение для изучения языка.

Использование инновационных технологий на уроках языка также может помочь создать более персонализированный и адаптивный опыт обучения для студентов. Например, приложения для изучения языка и онлайн-ресурсы могут отслеживать прогресс и успеваемость учащихся, позволяя преподавателям адаптировать обучение и предоставлять целевую обратную связь с учетом индивидуальных потребностей и областей для улучшения. Такой

персонализированный подход к изучению языка может помочь учащимся достичь своих целей обучения более эффективным и действенным образом, а также дать им возможность взять на себя ответственность за свое обучение и прогресс. Интеграция инновационных технологий в языковые занятия также может помочь повысить общее качество языкового образования. Используя такие инструменты, как моделирование виртуальной реальности, онлайн-игры и мультимедийные ресурсы, преподаватели могут создать более захватывающий и увлекательный процесс обучения, который стимулирует любопытство и творческий потенциал учащихся. Это может помочь улучшить запоминание и понимание учащимися материала, а также способствовать более глубокому пониманию языка и культуры, которые они изучают. Кроме того, использование технологий может позволить преподавателям получить доступ к множеству ресурсов и материалов, которые могут повысить качество и глубину обучения на языковых занятиях. Инновационные технологии стали неотъемлемой частью нашей повседневной жизни, и их присутствие все больше ощущается и в классе. В Узбекистане в последние годы использование инновационных технологий на уроках языка стало более распространенным. Одним из самых больших преимуществ использования инновационных технологий на уроках языка является возможность сделать обучение более интерактивным и увлекательным. Например, приложения для изучения языка и онлайн-платформы позволяют студентам практиковать свои навыки в аналитической и интерактивной форме, что делает процесс обучения более удобным и эффективным.

Кроме того, инновационные технологии также могут помочь учащимся быстрее и эффективнее развивать свои языковые навыки. С помощью таких инструментов, как онлайн-словари, приложения для перевода и программное обеспечение для изучения языков, учащиеся могут получить доступ к ресурсам и практическим материалам, что позволяет им совершенствовать свои языковые навыки в удобном для них темпе.

Еще одним преимуществом использования инновационных технологий на уроках языка является возможность адаптировать учебные материалы к индивидуальным потребностям учащихся. Используя платформы адаптивного обучения, учителя могут создавать персонализированный опыт обучения для каждого учащегося с учетом его сильных и слабых сторон, что позволяет ему

прогрессировать в своем собственном темпе. Включение инновационных технологий в уроки языка также может помочь создать более инклюзивную среду обучения. Благодаря использованию таких инструментов, как программное обеспечение для преобразования речи в текст и онлайн-платформы языкового обмена, учащиеся с разными стилями обучения и способностями могут извлечь выгоду из использования технологий в классе. Несмотря на многочисленные преимущества использования инновационных технологий на уроках языка, при их внедрении возникают и некоторые проблемы. Одной из самых больших проблем является отсутствие доступа к технологиям для всех студентов. Не все учащиеся имеют доступ к необходимым устройствам и подключению к Интернету, необходимым для того, чтобы в полной мере воспользоваться инновационными технологиями на уроках языка. Существует также проблема обеспечения надлежащей подготовки учителей для эффективного внедрения инновационных технологий в свои уроки языка. Многие учителя могут быть не знакомы с новейшими технологическими инструментами и с тем, как эффективно их использовать для улучшения качества обучения своих учеников. Еще одна проблема заключается в том, что технологии могут отвлекать внимание в классе. При использовании смартфонов и других устройств у учащихся может возникнуть искушение заняться другими делами вместо того, чтобы сосредоточиться на уроке языка. Однако, несмотря на эти проблемы, преимущества использования инновационных технологий на уроках языка намного перевешивают недостатки. Применяя технологии и внедряя их в уроки языка, учителя могут создать более увлекательный и эффективный опыт обучения для своих учеников.

В заключение отметим, что использование инновационных технологий на уроках языка может революционизировать способы обучения учащихся и развития языковых навыков. Используя возможности технологий, учителя могут создавать для своих учеников более персонализированный и интерактивный опыт обучения, что в конечном итоге помогает им лучше владеть целевым языком. Интегрируя такие инструменты, как приложения для изучения языка, симуляции виртуальной реальности и онлайн-ресурсы, преподаватели могут создать более интерактивный, персонализированный и



увлекательный процесс обучения, отвечающий разнообразным потребностям и предпочтениям учащихся.

### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА**

1.Олимов С. ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ. Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук, том. 8 № 11, 2020 г. Часть II ISSN

2.Х.Р., Шукуров Р.С., Самадов С.С. Исследование об изменении отношения к основам культуры здорового образа жизни у студентов элективных курсов //Международный журнал прогрессивных наук и технологий. - 2021. - Т. 25. - №. 2. - С. 112-118.

3.Сафаров Д. З. У., Хамроев Б. Х. ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ГИМНАСТИКА ДАРСЛАРИНИ ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА УЎИТИШИ САМАРАДОРЛИГИ //Научный прогресс. - 2021. - Т. 1. - №. 6.

4.Усмонов Ш. Х., Самадов С. С., Фармонов А. Ч. Физкультурно-спортивные интересы и мотивационные установки студентов //Вопросы науки и образования. - 2021. - №. 4 (129). - С. 27-30.

5.Муниров Н. А., Раджабов Э. Н. Учебные технологии, применяемые в обучении видам национальной борьбы кураш //Научный журнал. - 2019. - №. 6 (40).

## TABLE OF CONTENTS

1	<b>FRAZEMALARNING MA'NO VA XUSUSIYATIGA KO'RA TURLARI. FRAZEMALARDA MILLIY MINTALITETNING AKS ETISH JARAYONI</b> Abdusamatova Nozanin Azim qizi	3-8
2	<b>ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК МУОАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ</b> Ш.Н.Янгиев	9-13
3	<b>RESEARCH OF UZBEK ORNITHONYMS AND ITS MAIN DIRECTION.</b> Bibikhon Shomurotova	14-16
4	<b>UBAYDIY – MOHIR RUBOIYNAVIS</b> Dilorom Hayitboyeva	17-20
5	<b>SIDQIY XONDAYLIQIYNING “SAD IRSHOD YOXUD SAD QONUNI” – XALQ DONOLIGINING GO'ZAL DURDONASI</b> Intizor Abdujabborova	21-24
6	<b>OLIY TA'LIMDA “MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI” FANIDAN REFLEKSIV VIDEOTRENING YARATISH METODIKASI</b> Abduvafo Qorayev	25-32
7	<b>MA'RIFIY-BIOGRAFIK ROMANCHILIK TARIXI VA BUGUNI, TARAQQIYOT VA ISTIQBOLLARI</b> X.SH.Jo'raqulova	33-36
8	<b>“TASVIRLAR BILAN ISHLASHNI BOSHLASH” MAVZUSINI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH</b> Bahodir Nazarov	37-43
9	<b>ALISHER NAVOIYNING “SAB'AI SAYYOR” DOSTONIDA BADIYYAT MASALASI</b> Zarina Bahronova	44-50
10	<b>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ РОДНЫМ ЯЗЫКОМ</b> Эзоза Исламова	51-55
	<b>OUTLINE</b>	56